


Toshev Ilyos Idibekovich

CHIZMA TASVIR FANIDAN MASHQ VA TOSHIRIQLAR TO'PLAMI

О'зару оғизланима



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA
INSTITUTI

TOSHEV ILYOS IDIBEKOVICH

**"CHIZMA TASVIR" FANIDAN
MASHQ VA TOPSHIRIQLAR
TO'PLAMI**

*5111000 – kasb ta'limi, (5150900 – dizayn (kostyum));
ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida
tavsiya etilgan*

**BUXORO – 2021
«DURDONA» NASHRIYOTI**



30.11ya73

741(075.8)

T 71

Toshev I. I.

"Chizma tasvir" fanidan mashq va topshiriqlar to'plami [Matn] : /o'quv qo'llanma/Toshev I.I./ - Buxoro: "Sadiddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, - 2021. - 144 b.

UO'K 741(075.8)

BBK 30.11ya73

Mazkur o'quv qo'llanma 5150900 - Dizayn (kostyum) ta'lif yo'nalishi talabalari uchun "Chizma tasvir" fan dasturi asosida tayyorlangan. Qo'llanma ta'limning muhim bo'limi - "Chizma tasvir" fanidan mashq va topshiriqlarni guruhlarda tashkil etish va o'tqazishga bagishlangan. O'quv qo'llanmaning negizini chizma tasvir nazariysi va o'qitish metodlari, turli shakllarni tasvirlash, ularning konstruktiv tuzilishi, tus munosabatlari, perspektiva qoidalari hamda murakkab shakllarni tasvirlash ketma - ketligi tashkil etadi.

Данное учебное пособие написано в соответствии с типовой учебной программой «Рисунок» для направления бакалавриата 5150900 – Дизайн (костюм). Пособие посвящено важному разделу обучения – выполнению заданий и упражнений по рисунку. Основу учебного пособия составляют как теория рисунка, так и методы обучения и рекомендации по изображению различных форм: их конструктивное построение, тональные отношения, перспектива, последовательность изображения сложных форм.

This study guide is written in accordance with the standard curriculum "Drawing" for the direction of bachelor 5340100 – architecture. The manual is devoted to an important section of the training – the implementation of tasks and exercises for drawing. The basis of the training manual is both the theory of drawing, and teaching methods and recommendations on the image of various forms: their constructive construction, tonal relationships, perspective, sequence of images of complex forms.

TAQRIZCHILAR

Suxrob Abdullayev

– Buxoro davlat universiteti "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrasi dotsenti;

O'ktam Yodgorov

– Buxoro muhandislik texnologiya instituti "Chizma geometriya va muhandislik grafikasi" kafedrasi mudiri, t.f.n., dotsent.

Mazkur o'quv qo'llanma Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi Buxoro muhandislik-texnologiya institutining ilmiy kengashi 2020 yil 30-may 8-sonli qaroriga asosan nashr qilishga ruxsat etilgan.

ISBN-978-9943-7369-4-8

© Toshev I. I



KIRISH

Chizma tasvir fani badiiy ta'limda bo'lajak rassom – dizayner bo'yicha malakali mutaxassislarini taylorlashda asosiy o'quv fanlardan biri bo'lib hisoblanadi. Chizma tasvir mustaqil o'quv predmeti sifatida borliqni haqqoniy tasvirlash, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, estetik did va ehtiyojlarini tarbiyalashda cheksiz imkoniyatlarga ega.

Chizma tasvir va rangtasvir namunaviy fan dasturi chizma tasvirdagi ta'limdagi o'rni, dizayner tayyorlashda qalamtasvir va rangtasvir fanlarining talabalarini kasbiy tayyorlashda o'rnini, o'quv fanining maqsad va vazifalarini aniq va ravshan belgilagan. Jumladan fan bo'yicha talabalarning bilim, qo'nikma va malakalariga qo'yidagi talablar qo'yilgan, ya'ni:

chizma tasvir va rangtasvir bilim asoslarini, buyuk usta rassomlar ijodini o'rganish;

chizma tasvir va rangtasvirda qo'llaniladigan turli uslublarni, tasvirlash qonuniyatlarini bilishi;

mavjud voqelikni butun rang barangligi va qo'lami bilan idrok etish.

Shuni ta'qidlash joizki, chizma tasvir bo'lajak dizayner – rassom kasbiy tayyorgarligida alohida o'ren egallaydi. Chizma tasvir tasviriy san'at asosini tashkil etib, talabaga badiiy mahorat zaminini yaratadi. Chizma tasvir fanini chuqur o'rganish maqsadida talabalar ushbu fandan doimo mashq va topshiriqlarni bajarishi maqsadga muvofiq deb o'ylayman. Shuningdek chizmatasvir fanidan mashq va topshiriqlar o'quv qo'llanma oldida chizma tasvir nazariy va amaliy "sirlari" ning qirralarini ochib berish, talabalarga kompozitsiyaning umumiyligi, qoidalari, proporsiya munosabatlari, shakl, yorug' - soya, chiziqli perspektiva kabi chizma tasvir konuniyatlarini o'rgatish maqsad etib qo'yildi.

Chizma tasvir asoslarini o'rgatishda qalamtasvir va uning maqsad – vazifalari, tasvirlashning asosiy qonun – qoidalari,



natyurmortning kompozitsiyasi, kompozitsiya qonuniyatları, o'quv natyurmortini ishlash metodikasi, xomaki chizmalar va qoralamalar, sifatli surat chizish tamoyillari, hajm chiqarish, kompozitsiya, antik davr haykallari (David, Venera, Sokrat), tirik odam bosh qismini tasvirlashni o'rganish (3ta rakursdan), inson yuz qismi yelka kismgacha (byust) tasvirlash xal etuvchi rolni o'ynaydi va bo'lajak rassom - dizayner uchun kerakli grafik ma'lumotlarga ega bo'ladi.

Qo'rsatilgan vazifalardan kelib chiqqan holda, mazkur o'quv qo'llanma oldida yuqorida qo'rsatilgan mavzularning nazariyasi va amaliy qismini chuqr o'rganib, muntazam ravishda mashq va topshiriqlar asosida chizma tasvir qoidalarini chuqr o'rgatish qo'yilgan.

Shu sababli men o'quv qo'llanmada chizishdan oldin tasvirlash san'atining nazariy asoslariga xam e'tiborni qaratdim. Bu asosan rasmda kompozitsion echim, chiziqli – asos tuzilishi, nisbatlar, yorug' - soya qonunlari, ishni bajarish ketma-ketligi kabi mavzularda o'z aksini topgan.

Ma'lumki, dizayner - rassom bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash jarayonida gipsdan yasalgan geometrik jismlar rasmini, ular to'plami, gipsdan yasalgan turli naqshlar, rozetkalar rasmini tasvirlash kabi o'quv topshiriqlari muhim o'rinni egallaydi. Yuqorida keltirilgan mavzular bo'lajak rassom – dizaynerlarning qaysi turida faoliyat ko'rsatmasin ijodiy kreativ faoliyatlarida juda qo'l keladi.

Insonni tasvirlash asosida ham gipsdan yasalgan anatomik modellar, bosh qismi detallari ko'z, qulqoq, burun, og'iz va hokazolarni o'rganib so'ng antik davr haykaltaroshligining yorqin namunalaridan «David, Gudon modeli, Antinoy, Diadumen, Suqrot, Valter va boshqalarning gipsdan yasalgan modeli rasmini chizishga o'tiladi. Yuqoridagilar hammasi tirik insonni tasvirlashda boshlang'ich manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi.



Birinchi bosqichdan boshlanadigan chizmatasvir bo'yicha o'quv topshiriqlari perspektiva, plastik anatomiya kabi ilmiy bilim asoslari bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bilan birgalikda talabalar pedagog rahbarligida va mustaqil ravishda chizmatasvir bo'yicha usuliy o'quv adabiyotlarini o'rganishlari maqsadga muvofiqdir. Talabalarni rasm bajarish jarayonida didaktik prinsipning asosiy qoidalardan biri bo'lgan ketma-ketlik usulini qo'llashga o'rgatish zarur. Bu haqda bir qator buyuk musavvirlarlar, rassom – pedagoglar o'z traktatlarga qo'rsatganlar.

Chizma tasvir asoslarini o'rganish jarayonida bo'lajak rassom - dizayner natura (narsaning o'ziga qarab), xotira – tasavvurdan chizishni o'rganadilar. Rasm chizishni o'rganishda chiziqli perspektiva qonunlarini o'rganib, amaliyotda qo'llash ham benihoya muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, I kursda kuzatish perspektivasi asoslarini egallash juda muhimdir. Shu bilan birgalikda talaba professional va usuliy tayorgarligida predmetlarning konstruktiv tuzilish qoidalarini o'zlashtirish muhim o'rinni egallaydi.

Chizmatasvir bo'yicha o'quv dasturi ma'lum didaktik tizimga keltirilgan. Topshiriqlarni bajarishga qaratilgan o'quv topshiriqlari gipsli (ganch) modellar ustida ishlashni nazarda tutadi. Bu oddiy geometrik figuralar (kub, konus, shar, silindr va h.z.), gipsli bosh modelining qismlari (ko'z, quloq, burun), qadimgi klassik haykal – Mikelanjeloning "David" asari va boshqa antik modellar. Shu bilan birgalikda dasturda turli xil qisqa muddatli rasmlar (qoralama, chizgi) bajarish ham nazarda tutilgan.

Geometrik jismlarni ma'lum bir kompozitsion guruhgaga tuzib ishslash talabalarga rasm chizish qoidalarini (perspektiva, konstruktiv tuzilish, yorug'lik – soya tarqalishi) o'rganishga yordam beradi. Kelajakda talabalarga murakkab jismlarning konstruktiv tuzilishi qoidalarini tushunish va o'zlashtirishda



mazkur topshiriqlar asos bo'ladi.

Gipsli mashqlarni tasvirlash mazmuni perspektiva va yorug' soya nazariyasini amaliyotda qo'llay olishga qaratilgan.

Antik haykallarning bosh qismlarini tasvirlash odam anatomiyasini chuqur o'rghanish va rasm bajarish amaliyotida qo'llashni talab etadi.

Talabalar tushunishi va chizishini osonlashtirish maqsadida bir naturaning bir qator ko'rish nuqtalaridan chizilgan tasvirlari keltirilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma 511000 - Kasb ta'limi (5150900 – Dizayn (kostyum)); ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tayyorlangan. Bundan tashqari o'quv qo'llanmadagi o'quv materiallari tasviriy va amaliy san'at yo'nalishidagi hunarmandchilik kollejlari talabalari tayyorgarligida metodik yordam sifatida qo'llanishi mumkin.



I - BOB. Qalamtasvir fanini o'qitishning nazariy va amaliy asoslari, tasvirlashning asosiy qonun - qoidalari

Tasvirlashning asoslari, qalamtasvir va uning maqsad – vazifalari

Birinchi bosqichdan boshlanadigan qalam tasvir bo'yicha o'quv topshiriqlari perspektiva, plastik anatomiya kabi ilmiy bilim asoslari bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bilan birgalikda talabalar pedagog rahbarligida va mustaqil ravishda qalamtasvir bo'yicha o'quv adabiyotlarini o'rganishlari maqsadga muvofiqdir. Talabalarni rasm bajarish jarayonida didaktik prinsipning asosiy qoidalardan biri bo'lgan ketma - ketlik usulini qo'llashga o'rgatish zarur.

Rasm asoslarini o'rganish jarayonida bo'lajak rassom – dizaynerlar natura (narsaning o'ziga qarab), xotira – tasavvurdan chizishni o'rganadilar. Rasm chizishni o'rganishda chiziqli perspektiva qonunlarini o'rganib, amaliyotda qo'llash ham benihoya muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, I kursda kuzatish perspektivasi asoslarini egallash juda muhimdir. (1 - rasm). Shu bilan birgalikda talaba professional va usuliy tayorgarligida predmetlarning konstruktiv tuzilish qoidalarini o'zlashtirish muhim o'rinni egallaydi.



1 - rasm. Kuzatish perspektiva namunasi.



Chizma tasvir bo'yicha o'quv dasturi ma'lum topshiriqlar bajarishga qaratilgan. I semestrga mo'ljallangan o'quv topshiriqlari gipsli (ganch) modellar ustida ishlashni nazarda tutadi. Bu oddiy geometrik figuralar (kub, konus, shar, silindr va h.z.), gipsli bosh modelining qismlari (ko'z, quloq, burun), qadimgi klassik haykal – Mikelangeloning "David" asari va boshqa antik modellar. Shu bilan birgalikda dasturda turli xil qisqa muddatli rasmlar (qoralama, chizgi) bajarish ham nazarda tutilgan.

Geometrik jismlarni ma'lum bir kompozitsion guruhgaga tuzib ishlash talabalarga rasm chizish qoidalarini (perspektiva, konstruktiv tuzilish, yorug'lik – soya tarqalishi) o'rGANISHGA yordam beradi. Kelajakda talabalarga murakkab jismlarning konstruktiv tuzilishi qoidalarini tushunish va o'zlashtirishda mazkur topshiriqlar asos bo'ladi. Gipsli mashqlarni tasvirlash mazmuni, perspektiva va yorug soya nazariyasini amaliyotda qo'llay olishga qaratilgan.

Antik haykallarning bosqich qismlarini tasvirlash odam anatomiyasini chuqur o'rGANISH va rasm bajarish amaliyotida qo'llashni talab etadi.

II bosqich talabalariga qalamtasvir asoslarini o'rgatishda natyurmortlarni tasvirlashga alohida o'rIN ajratilgan. Natyumort ustida ishlash jarayonida talabalar kuzatish perspektivasi, narsalarning konstruktiv tuzilishi, yorug'lik – soya tarqalishi qoidalari haqida aniq bilim va ko'nikmalar hosil etadilar. Turli materiallar (shisha, metall, yog'och, mato va h.z.) fakturasini tus orqali ifodalashga o'rganadilar.

I - II jarayonda qisqa muddatli rasmlar bajarish nazarda tutilgan. Chunonchi, II jarayonda odam qomati, qush va hayvonlardan qoralamalar bajarish ko'zda tutilgan. Bu jarayonda ko'zlangan maqsad II bosqichdan boshlab harakatdagi ob'ektlarni tasvirlay olish, naturaning asosiy, tipik holatini bera olishni o'rGANISHdan iboratdir. Shu qatorda xotira va tasavvurdan qisqa muddatli rasm bajarishga ham alohida o'rIN ajratilgan.



O'z mohiyati va maqsadiga ko'ra turli badiiy materiallar bilan ishlangan tasvir rasm deb ataladi. Nafaqat badiiy asar, balki me'moriy va dizayner loyihalarini, kitoblar va gazetalardagi illyustratsiyalarni, karikaturalarni, kostyum modellari chizmalari, naqshlar asosini bir so'z bilan rasm deb atash mumkin. Rasmi grafit qalam bilan qog'ozga, kartonga, ko'mir yoki flomaster bilan shishaga, tush va pero, bo'yoq bilan matoga, tayoqcha bilan qumga, o'tkir uchli narsa bilan keramika idishga, uchli metal qalam bilan mis laganga chizish mumkin.

Rasm bo'lajak rassom - dizaynerga ob'ektni o'rganishga, hajmli predmetlarni tekislik yuzasiga yoki hajmli yuzaga tasvirlashga, hayotda ko'rganlarini, o'ylagan g'oyalarini tasvirlashga yordam beradi.

Qadimgi davrlardan tortib to hozirgacha yaratilgan turli janr va turlarga mansub bo'lgan ishlarni ko'rib chiqqanda, biz barchasining asosida rasm yotganligiga guvoh bo'lamiz va bunda eng asosiy o'rinni chiziq egallashining guvohi bo'lamiz.

RASM CHIZISHDA CHAMALASH USLUBI

Ko'pchilik musavvirlar rasm chizishda chamalash uslubdan foydalanadilar. (2 - rasm).



2 - rasm. Chizilayotgan naturaning qogozga nisbatan joylashuvi. a) qogozga nisbatan katta; b) qogozga nisbatan kichik; V) qogozga nisbatan to'gri joylashtirilgan.



Bu uslubda naturaga qo'lni cho'zgan holda qalam bilan uning bo'yи, eni, qalinligi va boshqa elementlarining bir - biriga nisbati aniqlanadi. Fransuz rassomi Delakrua bu uslubga tanqidiy ko'z bilan qaragan. Uning fikricha, bu uslub ko'zning chamalash qobiliyatini rivojlantirmaydi, balki uni o'tmaslashtiradi. Bu o'rinda yana shuni aytish kerakki, bu uslubda o'lchashda N.N. Rostovstev fikriga ko'ra, albatta xatolik bo'ladi. Shu sababli qadimgi davr rassomlari "sirkul qo'lda emas, ko'zda bo'lishi kerak" deya fikr bildirishgan (3 - rasm).



3 - rasm. Rafael Santi. Donni Maddalena portreti (qalamchizgi).



Rassom N.Ge proporsiya o'lchamlari haqida ajoyib fikr aytgan edi: "Chizish – o'lcham munosabatlarini ko'rishdir". O'lcham munosabatlarini o'rganishning dastlabki bosqichida "vizirovaniye", ya'ni chamalash usuli bilan tekshirish mumkin. Bu usuни qo'llash juda oson. Qalam uzatilgan qo'lga nisbatan perpendikulyar holatda ushlanib, naturaning bir tomoni qalam uzunligi bilan rassom o'tirgan joydan o'lchanadi. Naturaning ma'lum bir tomoni, masalan, balandligi qalamdan katta barmoq tirnog'igacha bo'lgan masofa orqali belgilanadi. Ammo chamalash usulini natyurmort kabi ob'ektlarning proporsional o'lchamlarini aniqlashda doimo qo'llash tavsiya etilmaydi.



4 - rasm. Natyurmort namunasi.



Rassom uchun eng ishonchli qurol chizg'ich va sirkul yoki boshqa chizish asboblari emas, balki uning ko'zidir. (4 - rasm). Ko'z rassom uchun eng ishonchli qurol deganda, biz oddiy ko'zni emas, balki mashq qilgan, chizayotgan, ishimizdagi eng oddiy kamchiliklarni ham ilg'ay oladigan, predmet shakli, hajmi va tuslarini hech bir asbobsiz aniqlay oladigan ko'zni nazarda tutamiz. Darhaqiqat, ko'z naturadagi eng oddiy shakllardan tortib, murakkab holatdagi borliq voqeа -hodisalarigacha ilg'aydi, chizishda rassom uchun eng ishonchli qurol bo'lib xizmat qiladi.

Rassom uchun o'z ishini tekshirishning yana bir usuli qalam bilan ko'z yordamida mo'ljalga olish usulidir: siz naturani o'ziga qarab tez ilg'ab chizdingiz. Ishingiz aniqli, nisbatlar to'g'ri topildimi, tevarak - atrof bilan o'zaro mutanosibligi qanday? Bu jarayonda qalamni qo'lga olib, qo'lni oldinga cho'zgan holda naturaning vertikal va gorizontal holatini, bir - biriga nisbatan o'lchami qanday, natura qaysi burchak ostida turganligi yoki bukilganligini aniqlang.

Yuqoridagi holatlarning barchasini ko'z bilan mo'ljalga olgan holda aniqlash mumkin. Ko'z bilan chamalagan holda quyidagi mashqni bajarish foydadan xoli emas. Qog'ozga chizilgan uzun chiziqni 2, 3, 5 va hokazo bo'laklarga bo'ling. Bunda har bir bo'linmaning o'zaro teng bo'lishiga erishing. Mashqni davom ettirib, predmetlarni ham xuddi shu asosda o'lchab, aniq nisbatlarini topishga harakat qiling.

Leonardo da Vinci chizishni o'rganish jarayoni o'rganuvchi uchun qiyin, zerikarli bo'lmasligi va undan ko'ngli qolmasligi uchun turli xil o'yinlardan foydalanishni tavsiya etadi. Masalan, olim ko'z bilan chamalab o'lchashni rivojlantirish uchun quyidagicha yozadi: "Bir kishi devorga qandaydir to'g'ri chiziq tortsin, qolganlar esa undan 10 tirsak uzoqlikda qo'lida nozik tayoqcha ushlab, uning kerakli qismini o'lchasin. So'ngra har biri borib, devordagi namuna bilan o'z o'lchaganini solishtirsin va bunda kimning o'lchaganini haqiqatga yaqin bo'lsa, o'sha g'olib hisoblanadi va oldindan belgilangan masofani zabit eta oladi".



BUYUMLARNING SHAKLI VA TUZILISHI, RASM CHIZISHDA KETMA – KETLIK BOSQICHLARINI TASVIRLASH

Atrofdagi barcha ko'rganlarimiz qandaydir shaklga ega. Masalan, daraxt, tog', barglar, inson qo'li bilan bino qilingan barcha narsalar o'zining doimiy shakliga ega. Geometriyada ular tekis va hajmli bo'lgani kabi, rasmda shakl, chiziqlar, soya - yorug'liklar orqali aniqlanadi va tasvirlanadi. (5 - rasm).



5 - rasm. Natyurmort namunasi.

Tabiat va inson qo'li bilan yaratilgan narsalar – shakllar (kvadrat, to'g'ri burchak, uchburchak, beshburchak, ko'pburchak, aylana, oval) ikki (bo'yи va eni) o'lchamda, hajmda ko'zga tashlanadi. Hajmli jismlar (kub, parallelepiped, prizma, piramida, silindr, konus, shar) bo'yи va enidan tashqari balandligiga ham ega. Rasm chizayotganda, jumladan, borliqdagi predmetlarni chizganda ularning geometrik shaklini tahlil qilish kerak. Chizilayotgan narsaning geometrik shaklga o'xshashi yoki farqlanishi talabaga predmetlar tuzilishini yaxshiroq aniqlashga va chizishga ko'maklashadi. Har bir murakkab shakl bo'laklardan iborat. Ularning birlashishini predmetning tuzilishi deyish mumkin. (6 - rasm).



6 - rasm. Gipsli rozetkani tasvirlash namunasi.



Tabiatdagi har bir predmet va narsaning asosi bor. Insonda, qush va hayvonlarda bu – skelet; daraxt, barg, o'simliklarda – shox, tomirlardir. Ular birlashib, predmet, inson va hayvonlarning tuzilishi va harakatini belgilaydi. (7, 8 - rasmlar).



7 - rasm. Korpisheva. Daraxtni tasvirlash namunasi.



8 - rasm. Toglarni tasvirlash namunasi.

Asos tuzilishi, predmetlar umumiy shaklini rasmda kontur chiziq orqali chizamiz. Bunda u tasvirlanayotgan predmetning umumiy shaklini belgilishi kerak. Rasm chizishda ketma - ketlik bosqichlari tasviriy san'at nazariyasi va rasm chizishga o'rgatish uslubiyoti bo'yicha yozilgan o'rta asrlar risolalaridan biri - Chennino Chennini (1372-1440)ning "Rangtasvir haqida risola" ishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Traktatda rasm chizish qoidalari haqidagi ma'lumotlar jamlangan bo'lib, risolaning qimmatli tomoni shundaki, muallif o'qitish metodlari asosida narsaning o'ziga qarab rasm chizish yotishini ta'kidlaydi. (9 - rasm).



9 - rasm. Chennino Chennini. San'at haqida kitob yoki Rangtasvir haqida traktat.



Muallif san'atni egallash yo'lida tinmay mehnat qilish lozimligini ta'kidlab, "doimo, biror kunni ham qoldirmay chizish... senga foyda keltiradi" deb yozadi.

Chennino Chennini rasm chizishni o'rganish jarayonida quyidagi uslubiy ketma - ketlikda ishni boshlashni tavsiya qiladi: "Rasm chizishni yengil narsalar namunasini chizishdan boshlab, iloji boricha ko'proq chiz, qo'lni mashq qildir..."

Mashhur musavvir Leonardo da Vinci o'zining "Rangtasvir haqida kitob" asarida rasm chizishni o'rgatish asosida narsaning o'ziga qarab chizish yotishini ta'kidlaydi va o'z fikrini quyidagicha izohlaydi: "Natura o'quvchini diqqat bilan kuzatishga, uning tuzilishini bilishga, o'ylash va fikr yuritishga majbur qiladi. Bu esa, o'z navbatida, o'qitish samaradorligini oshiradi va bilimga qiziqish uyg'otadi. (10, 11 - rasmlar).



10 - rasm. Leonardo da Vinci. Rangtasvir haqida kitob.



11 - rasm. Leonardo da Vinchi ishlaridan namunalar.


O'qitishda aniq sistemalik va ketma - ketlik yo'lini mahkam ushlash haqida gapirib, rassom shunday izoh beradi: "Agar sen narsalar shaklini o'rganmoqchi bo'lsang, eng avvalo, uning alohida qismlaridan o'rganishni boshla, toki amalda va xotirada shularni o'zlashtirib olmaguncha ikkinchisiga o'tma, toki sen amalda va xotirada ularni uzlashtirib olmaguningcha.

Naturaga qarab rasm chizish jarayonida, aniq sistema va o'quv rassom -pedagog topshirig'ini bajarishda metodik ketma - ketlikka rioya qilish haqida P.P. Chistyakov shunday deb yozgan edi: "Chizuvchi o'ylamaydi, ko'radi va o'zicha chizadi. ... Chizilayotgan predmet sizningcha qanday emas, balki naturada qanday bo'lsa, shunday chizilishi kerak. Bu jarayonda faqat sezgi, iste'dod kamlik qiladi, tafakkur yuritish kerak. Ish ma'lum tartibni talab etadiki, uni o'rtasi yoki oxiridan emas, balki bir boshdan boshlash kerak. Bunda dastlab ko'rish, o'ylash va mulohaza yuritish talab etiladi. Axir aytadilarku, etti o'lchab, bir kes deb... Iste'dodni xudo beradi, qonunlar esa naturada yotadi..."

Darhaqiqat, rasm chizish jarayonida chizuvchi qalam vositasida bir qator murakkab vazifalarni bajarishiga to'g'ri keladi. Qog'oz tekisligida hajmiy shaklni tasvirlash uchun



tasvirlovchi naturaning kompozitsiyasi, shakli ustida ishlash kerak, uning atrofidagi holatni yorug' - soya orqali ifodalash zarur. Umumlashtrish, tipik tomonlarni ajratish kabi vazifalarni hal qilish zarur. Yuqoridagi omillar ishning badiiy ta'sirchanligini ta'minlashini unutmaslik lozim. Demak, rasm chizishda ma'lum bir ketma - ketlik saqlanmasa, mazkur vazifalarning yechimi rassom uchun ancha murakkablashadi. (12 - rasm).



12 - rasm. Natyurmortni bosqichma – bosqich bajarish namunasi.



I-Bob bo'yicha mashq, topshiriqlar, nazorat va mustahkamlash savollari:

1. Natyurmort kompozitsiyasini tasvirlash
2. Leonardo da Vinci va Chennino Chennini ishlaridan nusxa qo'chirish (chizgi va qoralamalar).
3. Ish joyini jihozlash deganda nima nazarda tutiladi?
4. Molbert oldida o'tirish holatlari.
5. Rasm chizish nimadan boshlanadi?
6. To'g'ri joylashtirish usullari.
7. Chizish uchun moslama turlari.
8. Qalamtasvir materiallari.
9. Shaklning konstruktiv asoslari tushunchasi.
10. Ufq chizig'i nima?
11. Kartina tekisligi deganda nimani tushunasiz?
12. Tutashuv nuqtalari tushunchasi.
13. Chiziqli perspektiva va havo perspektivasining asosiy qonuniyatlari.
14. Qalamtasvirda yorug'lik – soyalar qonuni.
15. Yaxlitlik va tus munosabatlar tushunchasi.
16. Natyurmort bajarish bosqichlari.



II - BOB. HAR XIL SHAKL VA HAJMGA EGA BO'LGAN JISMLARNI TASVIRLASH

NATYURMORT TUSHUNCHASI

"Natyurmort" – fransuzcha so'z bo'lib, turli buyumlardan tuzilgan, ma'lum bir ma'noni anglatadigan kompozitsiyadir. Bu so'zning aniq tarjimasini "jonsiz tabiat uyushmasi" deyish mumkin. Natyurmort asosida rasm chizish qoidalarini o'rgatish barcha badiiy maktablar usulida qadimdan rivojlangan. Bu borada Italiya, Olmoniya, Rossiya kabi badiiy akademiyalarning boy tajribasini tilga olish mumkin. Leonardo da Vinci, Albrekt Dyurer, Chennino Chennini kabi buyuk rassomlarning klassik merosi fikrimiz dalilidir.

Natyurmort ustida ishlash jarayonida talabalar kuzatish perspektivasi orqali narsalarning konstruktiv tuzilishi, yorug' – soya tarqalishi qoidalari haqida aniq bilim va ko'nikmalar hosil etadilar. Turli materiallar (shisha, metall, yog'och, mato va h.z. fakturasini tus orqali ifodalashga o'rghanadilar. Natyurmort chizishda eng birinchi navbatda shakli aniq, ortiqcha bezaksiz, murakkab bo'limgan buyumlarni tanlash kerak. Shundan so'ng ma'lum qoidalari asosida natyurmort tuzish kerak. Bunda tanlangan predmetlar orasidagi mantiqiy bog'lanishga jiddiy e'tibor qaratish zarur. Buning uchun natyurmortchi rassomlar bajargan ishlarning reproduksiyalarini o'rghanish juda muhimdir. Ularning natyurmortni qanday tuzganliklariga e'tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Predmetlarni tanlashda ularning qanday materialdan ekanligi, turli xil shakl va figuradagi predmetlar ishtiroti ishning qiziqarli va jonli chiqishiga imkon yaratadi. (13, 14 - rasmlar).



13 - rasm. Natyurmort namunasi.




14 - rasm. Uy - ro'zgor buymlardan tuzilgan natyurmort tasviri.


Natyurmort uchun eng xarakterli narsa unda ishtirok etadigan narsalarning yagona kompozitsion markazga bo'y sunishidir. Ish jarayonida hal etilishi lozim bo'lgan eng asosiy vazifalardan biri – naturani qog'ozga joylashtirishdir. Chunki chizilayotgan narsalar qog'ozga vertikal yoki gorizontal joylashtirilishi bilan turlicha ko'rindi.

Tasvirlanayotgan natyurmortni puxta o'ylab, tuzish kerak. Bunda masalan, uy - ro'zg'or buyumlari to'plami, musiqa asboblari, sport anjomlari va hokazolardan foydalanish mumkin.

Fon sifatida yaltiroq bo'limgan, bezaksiz, bir xil tusga ega bo'lgan mato ortiqcha burmalarsiz, tekis qo'yilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ishni bajarish rasm uchun asos bo'lgan tamoyil – umumiylididan alohidalikka hamda alohidalikdan umumiylikkha qaytish qoidasiga asoslanishi kerak. Ishni baholashda naturaning qog'ozga qanday joylashtirilganligi, fazodagi o'rni, perspektiv qisqarishlari hamda yorug' – soya qonunlarining to'liq hal etilganligi, nisbatlar alohida e'tiborga olinadi. (15 a, 16 b, 17 c - rasmlar).



15 - a rasm.



16 - b rasm.



17- a-b-c-rasmlar. Matoni tasvirlash bosqichlari.



O'quv ishida muhim bosqich mato rasmini o'rganish bo'lib qolmay, burmalarning qanday shaklda ekanligini ko'rsata olishdir. Mato mebel jihizi ustiga bir uchi bilan tashlab qo'yilganda, osilib turganda yoki biron narsaga ilinib turganda yirik qatlar, turli siniqlarni hosil qilishi mumkin. Avvalgi matoning bezaksiz, sillig'ini tanlash yaxshiroq. Bu qatlar shaklini ancha umumlashtirib qabul qilishga imkon beradi. Birinchi xomaki rasmlarni kontrast kechki yorug'likda bajarish tavsiya qilinadi. Oddiy bo'z matoda shakl aniq qatlar hosil qiladi.

Ish jarayonining keyingi bosqichlarida topshiriqlarni murakkablashtirib, kiyimlar rasmini tasvirlash tavsiya qilinadi. Masalan, stulga qo'yilgan ko'ylak, dekorativ mato va hokazo. Hatto qisqa muddatli rasmda qatlar xususiyatini ifodalab, shaklini his etish, shuningdek o'zgacha xususiyatlarni ham ajrata olish mumkin. Bunday mashqlar natijasida hosil qilingan ko'nikmalar syujet hamda dekorativ xarakterli kompozitsion topshiriqlar ustida ishslashda foyda beradi. Qadimgi rassomlar mato rasmini chizishda mato va u joy olgan makon o'rtaсидаги bog'lanish tasviriga katta ahamiyat bergenlar. (18 - rasm).



18 - rasm. Mato tasviri




Bu ishlarni bajarishdan oldin qadimgi davrlar rassomlari chizib qoldirgan rasmlar reprodukstiyalarini ko'rish maqsadga muvofiqdir.

GEOMETRIK JISMLAR RASMINI CHIZISH

Badiiy ta'lim tizimida rasmni o'rganish, eng avvalo, turli geometrik shakllarni chizishdan boshlanadi. Bunday predmetlar simdan yasalgan bo'lsa, maqsadga muvofiqdir. Bunda talaba naturaning ichkariga ketgan tomonlarini ham ko'radi, perspektiv qisqarishni his qiladi. Perspektiv qisqarishli turli predmetlar, masalan, shisha banka, piyola, stol, stul, shkaf, televizor va boshqalarning qisqa muddatli konstruktiv chiziqli tasvirlarini chizish keyingi ishlar jarayonida katta yordam beradi.

Ya'ni kompozitsion nuqtai nazardan to'g'ri tasvirlashni chamalab ko'ring. Kubning eng katta o'lchamlarini qog'ozga belgilang. Kubni tashkil qilgan qirralarni simdan yasalgan model deb faraz qilib, uning konstruksiyasini toping. (19 - rasm).



19 - rasm. Geometrik jismlar: kub va silindr rasmini chizish



Kubning bizga yaqin turgan tomoni o'z o'lchamida bo'lishi, uzoqlashgan tomonlari qisqarishini esdan chiqaring. Buning uchun perspektivadan olgan bilimingizni qo'llang. Tasvirlarni qalamni qattiq bosmasdan chizing. Kubni chizib bo'lgandan so'ng yorug'lik tushishi natijasida hosil bo'lgan joylarni shtrix, tushevka yordamida bering. Hajmni berishda tus darajasini qabul qiling va shu asosda yorug'lik, soya, yarim soya, tushuvchi soyalarni bir - biriga nisbatan solishtirgan holda bering. Ishni yakunlash oldidan umumlashtiriladi, to'q joylar pasaytiriladi va aksincha, kuchaytiriladi.



20 - a rasm. Geometrik jismlardan tuzilgan natyurmort konstruksiyasi.
1-bosqich


Hajmli predmetlarni tasvirlashda ular nafaqat perspektiv jihatdan to'g'ri chizilishi, balki uning old tomonidagi chiziqlarning orqa tomonidagiga nisbatan qalinligi hamda yoritilganligi, yorug'lik – soyalar munosabati e'tiborga olinishi zarur.

Yorug'lik – soya deganda biz tasvirda to'q va yorug' shtrixlar, dog'lar qanday taqsimlanishini tushunamiz va oldingi bosqichda bu haqda batafsil ma'lumotga ega bo'lganmiz.




Narsalar chiziqlar yordamida chiziladi, ammo chiziqlar yorug'lik – soya natijasida o'z kuchini yo'qotadi. Naturada chiziq yo'q, unda yorug'lik va soya bor. Shu asosda biz naturaning hajmi haqida ma'lumotga ega bo'lamiz. Shar shaklida bo'lgan gips modelni kuzatish davomida shar shaklini tasavvurimizda jonlantiruvchi yorug'lik va soya gradatsiyalari orqali uning hajmini idrok etamiz.


To'rtburchak shaklidagi predmetlar chizilishida ham yuqoridagi holatlar, ya'ni yorug'lik – soyalar tarqalishi nazarda tutiladi. Men kuyida geometrik jismlar konus, silindr va kubdan iborat bo'lgan jismlar to'plami, chizish boskichlarini keltiraman (20 - a, b, v, g rasmlar).



20 - b rasm. Geometrik jismlardan tuzilgan natyurmort 2-bosqich



20 - v rasm. Geometrik jismlardan tuzilgan natyurmort 3 - bosqich



20 - g rasm. Geometrik jismlardan tuzilgan natyurmortni chizish bosqichlari. Ish yakuni.

GIPSDAN YASALGAN ROZETKA RASMINI CHIZISH KETMA - KETLIGI


Rasm chizishni o'rganishda murakkab bo'lgan gipsli predmetlar bo'yicha mashqlar – kapitel, rozetkalar chizishga alohida diqqat qaratiladi. Gipsli bu nusxalar bizni oldingi davrlarda yashagan buyuk musavvir - me'morlar ishlari bilan tanishtiradi. Hamda jahoning barcha badiiy maktablari tajribasida chizish uchun model bo'lib hisoblanadi. (21 - rasm).



21 - rasm. Gipsli rozetka tasviri




Gipsdan yasalgan bu modellarni chizish qo'zg'almas bir joyga o'rnatish asosida amalga oshirilganligi sababli chizuvchiga o'ziga xos qulaylik yaratadi. Chizuvchi naturani old tomondan, yondan yoki to'rtdan uch ko'rinishda, gorizont chizig'iga nisbatan turli holatda chizish imkoniyatiga ega. Bu o'rganuvchiga perspektiv qisqarishlarni mukammalroq egallashda yordam beradi.



22 - rasm. Naqshli rozetka

Naqshlar bir qancha turlarga bo'linadi. Chizishni o'rganish jarayonida ko'proq o'simliksimon gipsli naqshlar chizilishi jahon badiiy ta'limdi qo'llanilib kelinmoqda. Ular gul, meva, barg va hokazolarning stilizatsiya qilingan shakllaridir (22, 23 - rasmlar).

Gips taxtaga tushirilgan ushbu gullar tasviri ham qog'ozga kompozitsion joylashtirishdan boshlanadi. Bunda naturani diqqat bilan kuzatib, uni vertikal joylashtirish kerak.



23 - rasm. Gipsdan yasalgan rozetkani chizish ketma - ketligi.

Gips taxtaning qog'ozga nisbatan to'g'ri joylashtirilishi juda muhimdir. Bunda natura yuqoriga, pastga chiqib ketmasligi, o'ngga yoki chapga surilib qolmasligi, yoki qog'ozga nisbatan katta yoki kichik bo'lib qolmasligi kerak. Shundan so'ng gips taxtaga tushirilgan naqshning eng katta o'lchamlari belgilab olinadi. Keyingi bosqichda katta o'lchamlar ichidagi barcha detallar aniqlanadi. Chizayotgan vaqtida perspektiv qisqarishga e'tibor berish kerak. Shaklning hajmli, chiziqli va konstruktiv tuzilishini aniqlab, tahlil qilish zarur (24 - rasm).




24 - rasm. Gipsdan yasalgan rozetkani tasvirlash namunasi

Gipsli naqshning chiziqli - konstruktiv tuzilishini chizib bo'lgandan so'ng, shaxsiy va tushuvchi soyalar, tus munosabatlari aniqlanadi. Tasvirlash jarayoni yorug' - soya munosabatlarini topish, soya, yarim soya, reflekslarni bajarish hamda tasvirning yaxlitligiga erishish bilan yakun topadi.

NAQSHLI ROZETKANI TASVIRLASHDA KETMA - KETLIK USULI

Bu jarayonda ish chizilayotgan naturaning umumiy ko'rinishini qog'oz yuzasiga joylashtirishdan boshlanadi. So'ng yengil chiziqlar yordamida predmetning umumiy shakli va asosiy o'q chiziqlari topiladi. Rozetkaning umumiy shakli bizga aylanani eslatadi. O'rtasida shar shakli, to'rt tomonidan chiqib turgan shoxsimon elementlar bo'lib, ularni bir - biriga tutashtirsak, to'rburchak hosil bo'ladi. Shundan so'ng naturani aniqlashtirishga o'tamiz. Naturaga diqqat bilan qaralsa, uning ichida to'rtta katta barg borligini ko'ramiz. Bu barglar bir - biriga qarama - qarshi tomonda – simmetrik ravishda joylashgan (25 - rasm).




25 - rasm. Gipsdan yasalgan naqshli rozetkani tasvirlash.

Naturadagi asosiy elementlar o'rni aniqlangandan so'ng uning detallari aniqlanadi. Bu o'rinda asosiy element – barglaridir. Ularni chizganda barchasi bir - biriga o'xshashligini unutmaslik kerak va tasvirda ham shunga erishish zarur. Shakl to'liq, o'ziga o'xshash chiqqandan so'nggina bir bor natura bilan solishtiriladi hamda har bir elementning yorug' – soya, yarim soyalar belgilanadiki, bu chizuvchiga kelgusidagi bosqichlar uchun poydevor vazifasini o'taydi. Rozetkadagi belgilangan yorug' – soyalar aniq ishlanishi uning hajmini yoki bir butun yaxlit tasvirini idrok qilish imkonini beradi.



GIPSDAN YASALGAN VAZA TASVIRI

Bu ishni amalga oshirish ham har doimgidek qog'oz yuzasiga tasvirni kompozitsion jihatdan to'g'ri joylashtirishdan boshlanadi. Joylashtirish jarayoni tasvirni yengil chiziqlar bilan vazaning umumiy ko'rinishini belgilashdan boshlanadi. Bunda eng asosiy vazifa vaza tasviri bilan natura o'rtasidagi o'xshashlikni topishga erishishdan iboratdir. Umumi shakl topilgandan so'ng vazaning konstruktiv asoslari perspektiva qonun - qoidalariiga rioya qilingan holda topiladi. Rassom - pedagog P.P. Chistyakov tavsiyasiga ko'ra: "Ko'rish bu – aniq nisbatlarni topib tasvirlashdir". (26 - rasm).



26 - rasm. Gipsdan yasalgan vazani tasvirlash bosqichlari


O'ng va chap tomoni bir xil bo'lganligi sababli vazaning teng o'rtasidan simmetrik o'q chizig'i o'tkaziladi. Shu chiziq naturani teng ikki qismga bo'ladi va qismlarning o'zaro tengligi shu chiziq yordamida tekshiriladi. Yordamchi chiziqlar yordamida vazaning yuqori qismidan asosiga qadar chiziqlar o'tkaziladi. So'ng vazaning konstruktiv asoslarini topishga diqqat




qaratiladi. Vazaning bo'yin qismi yuqorisi kesik konus va silindr shakliga ega. Ostki qismini chizishni osonlashtirish uchun geometrik jismlar shakli bilan taqqoslash maqsadga muvofiqdir.

Vaza tasviri ko'rilgandan so'ng uning yorug' – soyalarini aniqlanadi. Bunda vazaning yorug'lik, soya va yarim soya, tushuvchi soyalar chegaralari aniqlanadi. Bu o'rinda rassom Leonardo da Vinchining "Rangtasvir haqida kitob" asaridagi maslahatni eslash joiz. Unga ko'ra eng avvalo, butun shaklga yorug'lik tushmaydigan joylarga yengil tus beriladi, so'ng yarim soya va asosiy soya beriladi. Yorug' – soyalar vositasida hajmni berishda kerakli joylarda qalam kuchi bilan to'qlashtiriladi, yorug'lik va soya o'rtasidagi bog'liqlik, refleks va tushuvchi soyalar munosabatlari aniqlashtiriladi.

Vazaning shakli murakkab bo'lganligi sababli, avvalo, uning eng xarakterli joylarini ko'ra olish zarur. Buning uchun rasm chizish jarayonidagi asosiy qoida – umumiylididan alohidalikka va yana alohidalikdan umumiylikka o'tish qoidalariiga amal qilish lozim (27 a, b,v,g - rasmlar).



27 - rasm. a,b Gipsdan yasalgan vazani chizish ketma - ketligi.



27 - rasm. v.g Gipsdan yasalgan vazani chizish ketma - ketligi.

ME'MORLIK BO'LAGI – IONIK KAPITEL RASMINI CHIZISH

Shakli murakkab bo'lgan predmetlar qatoriga me'moriy detallardan bo'lgan kapitel, ya'ni ustunlarning yuqori qismlarini kiritish mumkin. Doriy, taskan, ioniy va korinflarni klassik me'moriy orderlar qatorida sanash mumkin. Men quyida ioniy kapitel chizilishini ko'rib o'tamiz. (28 - rasm).




28 - rasm. Ionik kapitel tasviri.


Kapitel rasmini chizish uni xayolan tahlil qilishdan boshlanadi. Ustun silindr shaklida bo'lib, uni ustiga kesik konus to'ntarilib qo'yilgan holatda ko'rishimiz mumkin. So'ng volyutani, ya'ni gajjaklarni to'rtburchak yashik ichida deb tasavvur qilamiz.



Bu holatda perspektiv qisqarishlarni ham topish oson bo'ladi. Volyutalar o'rtasida aylana shakldagi exinlar joylashgan bo'lib, yuqoridagi taxta ikki bo'lakka bo'linsa, uning markazi yuzaga keladi. So'ng ustundagi o'yiqlar bir -biridan ajralgan holda chiziladi. Ustun aylana shaklida bo'lgani uchun o'yiqlar yuqorisidan aylana shaklidagi yordamchi chiziq chiziladi va perspektiv qisqarishlarni hisobga olgan holda o'yiqlar taqsimlab chiqiladi. Ularning o'lchami bir xil naturada ko'rinsada, chizuvchi uchun turli xil bo'ladi. Shu holatda kapitelning umumiyo ko'riliishi tugagandan so'ng, detallarni chizishga o'tish mumkin. Chizuvchi doimiy ravishda o'yash, muhokama va tahlil qilish jarayonidan iborat ekanligini unutmasligi kerak (29 - a, b, v, g rasmlar).



29 a, b - rasmlar. Me'moriy detal – ionik kapitel rasmini chizish bosqichlari



29 v, g - rasmlar. Me'moriy detal – ionik kapitel rasmini chizish bosqichlari.




II-Bob bo'yicha mashq, topshiriqlar, nazorat va mustahkamlash savollari:

1. Matoni tasvirlang. (drapirovka)
2. Gipsli geometrik jismlar natyurmortini bajaring.
3. Naqshli gips rozetkani tasvirlang.
4. Gipsdan yasalgan vazani tasvirlang.
5. Doriy, Toskan, Ionik va Korinf kapitellarni har xil rakurslardan tasvirlang.
6. Geometrik jismlar tushunchasi.
7. Geometrik jismlarning konstruktiv asoslarini topping.
8. Kub rasmini chizish qoidalari.
9. Geometrik jismlarni chizishda perspektivadan foydalanish.
10. Gipsdan yasalgan naqsh rasmini chizish bosqichlari.
11. Gipsdan yasalgan vaza tasvirini chizish ketma - ketligi.
12. Natyurmort tushunchasi.
13. Har xil shakl va hajmga ega bo'lgan jism va predmetlardan iborat natyurmort rasmini chizing.
14. Natyurmortchi rassomlar haqida ma'lumot.
15. Natyurmort kompozistiyasi.
16. Natyurmortda yorug' – soyalar munosabati.
17. Natyurmort chizish uchun predmetlar tanlash.
18. Shakli oddiy va murakkab predmetlar deganda nimani tushunamiz?
19. Shaklni chizishda yordamchi chiziqlar tushunchasi.
20. Natyurmortni tasvirlashda yaxlit idrok va tasvirlash.
21. Tus munosabatlarining asosiy qoidalari.
22. Natyurmortni tasvirlashda o'quv vazifalari yechimi.



III - BOB. ANTIK DAVR HAYKALTAROSHLIGI NAMUNALARIDAN TASVIRLASH DAVID BOSH QISMI DETALLARI RASMINI CHIZISH

Inson bosh qismi rasmini chizishni o'rganishda Mikelanjeloning "David" haykali detallarini (ko'z, burun, og'iz, qulqoq), gips tasvirlarini chizish tavsiya etiladi (30, 31, 32, 33, 34, 35 - rasmlar). Shu bilan bir qatorda o'ziga qarab tirik ko'z, burun, og'iz, qulqlarning turli holatlardagi rasmlarini ishlash tavsiya etiladi.



30 - rasm. Ko'z rasmini chizish.



31 - rasm. Gipsdan yasalgak qulok chizish.



32 - rasm. Gipsdan yasalgan burun rasmini chizish.



33 - rasm. Gipsdan yasalgan burun rasmini chizish.



34 - rasm. Gipsdan yasalgan lab rasmini chizish.




35 - rasm. Gipsdan yasalgan ko'z modelini chizish bosqichlari.



KESIK BOSH TASVIRI

XVIII asrda yashagan fransuz haykaltaroshi Gudon yaratgan asarlar anatomiyani o'rganish bo'yicha qimmatli manba bo'lib hisoblanadi. Gudonning mashhur "Ekorshe" – anatomik modeli hozirgi vaqtda ham barcha badiiy ta'lif tizimlarida qo'llaniladi. (36 - rasm).



36 - rasm. Gudonning mashhur "Ekorshe" – anatomik modeli.



Inson gavdasining nisbatlari qonuniyati ustida Uyg'onish davrining ko'pgina rassomlari, jumladan Mantenya, Botichelli, Rafael, J.P. Lomanso, Mikelanjelo, Jan Kuzen va boshqalar ishlaganlar. Ular o'zlarining kuzatishlarini amaliy ish jarayonida muvaffaqiyatlari qo'llaganlar. Kitobda keltirilgan rasmlarga qarab, ular anatomik bilimlarining chuqurligi, perspektiva, optika qonunlarini teran bilganliklariga guvoh bo'lish mumkin.

Uyg'onish davri rassomlari qatorida Piter Paul Rubens (1517 - 1640) rasmga o'rgatishda perspektiva, yorug' - soyalar qonuni hamda plastik anatomiya bilimlariga katta e'tibor qaratgan. U o'z o'quvchilaridan nafaqat marmar haykalni chizish, balki tirik tanani chizishni, bu tana tomirlarida issiq qon oqishini ko'rsatishni talab qilgan. U inson bosh qismi tuzilish qonuniyatlarini o'rgangan holda yosh bolalarning bosh qismini hayron qolarli tarzda ifodalaydi. **Qalamtasvirdan tuzilgan ish rejasida antik davr haykali namunalaridan bosh qismining tasvirini yaratish asosiy o'rinni egallaydi.** Mazkur topshiriqlar talabalar uchun tirik odam boshini tasvirlashda tayyoragarlik bosqichi bo'lib hisoblanadi.

Bunday usul Italiya, Olmoniya, Angliya, Belgiya, Gollandiya, Rossiya markazlari (akademiya, studiya, badiiy maktablar)ning rassom va rassom -pedagoglar tayyorlash jarayonidagi ko'p asrlik badiiy tajribasiga aylangan.

Naturani "yaxlit ko'rish, katta shaklni ko'rish" uslublari turlicha bo'lib, Uyg'onish davri rassomlari ulardan unumli foydalanganlar. Umumlashtirish yoki rassom - pedagog P.P. Chistyakov "obrubovka" deb nomlagan uslub juda mashhurdir. Bu uslubdan hozirgi davr rassomlari ham keng foydalanadilar. Bu uslubning asosiy mohiyati shaklni sun'iy ravishda biror bir geometrik shakl holiga keltirishdir. Masalan, olma, anor tasvirini chizganda - shar shaklida, bosh qismi tuxumsimon yoki shar holatida, qo'llar - silindr, burun - to'rt qismdan iborat prizma shaklida kuzatiladi.



GIPSDAN YASALGAN BOSH RASMINI CHIZISH

Rasm chizish uchun boshlar tanlashning ham ma'lum ketma - ketligi mavjud. Dastlab monumental (umumlashtirilgan, katta - katta shakllarga ega bo'lgan) xarakterdagи haykallar boshi namunasini chizish tavsiya etiladi. Bu talabga gipsli grek haykallari namunalari: "Dorifor", "Gera", "Diadumen" kabilar javob beradi. Keyinchalik murakkabroq modellar – rum haykallari – Lyustiya, Vera, Seneka va boshqalarni chizish tavsiya etiladi. II bosqichdan boshlab Yunon haykaltaroshlik san'atining Zevs, Gerkules, Laokoon, Apollon, Germes kabi ajoyib namunalarini tasvirlashni tavsiya etish mumkin. (37, 38 - rasmlar).



37 - rasm. Antik davrga mansub gips boshini tasvirlash bosqichlari



38 - rasm. Antik davrga mansub gips boshini tasvirlash



Gispli bosh namunasidan chizishni bo'lajak rassom – dizaynerlarga o'rgatishning boisi shundaki, talaba gipsli model misolida nisbatlarni, konstruksiya (tuzilish), yorug'lik – soya tarqalishini erkin ishlaydi. Naturaning siljimaslik holati rassom – talaba oldiga qo'yilgan barcha vazifalarni echishga to'la imkon beradi.

Gipsli boshni chizishdan oldin ko'rish nuqtasi aniqlanishi lozim. Naturaga tushib turgan yorug'lik, boshning umumiy shakli va detallari (soch yo'nalichlari, yuz tekisliklari va h.k.) ajralib turishi zarur. Akademik uzoq muddatli rasm bajarishga kirishishdan oldin boshning turli holat va burilishlari chizilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday rasmlar bir tomonidan gipsli boshning perspektiv tuzilish va o'zgarish qoidalarini kuzatish uchun, ikkinchi tomonidan akademik rasm bajarishda eng qulay holatni aniqlashga yordam beradi.

GIPSDAN YASALGAN NIQOB RASMINI CHIZISH

Simli niqobni qo'llash g'oyasi rasmchilikda Uyg'onish davrida paydo bo'lgan. Xuddi shunday sharxlar va chizmalar Albrext Dyurer qo'lyozmalarida saqlanib kelinmoqda. Rus pedagogi Sapoynikov shunga o'xshash modelni o'quv jarayonida qo'llagan. Ushbu uslub variantlaridan biri qisqartirilgan kallaning gips modelidir.

Simdan qilingan model gipsli modeldan afzalligi shundaki, shaklni fazoda aynan ich - ichigacha ko'rishga imkon beradi. Bundan tashqari uni hohlagan rakursda (uzoqdagi qismlarni qisqartirib, kichraytirib ko'rsatish) joylashtirish mumkin. Ikki tomoni ochiq konstruksiya o'zining kamchiliklariga ham ega: ayrim bir - birini kesib o'tgan vaziyatlarda simli elementlarning kesishgan turli holatlarida nihoyatda chalkash manzarani yaratadi. Bu kutilmagan taassurotni kamaytirish maqsadida boshning to'liq modeli emas, balki faqat niqob qo'llaniladi.

Madomiki, niqob karkasining ko'pgina elementlari fazoning asosiy uch koordinatlari bo'ylab orientirlanganligi uchun bu erda


talab qilinadigan perspektiv chizilish logikasi shubhasizdir. Shu bilan birga, naturadan chizilgan qalam tasvir perspektiv chizmadan farq qiladi. Jumladan, tutashish nuqtalari ko'pchilik hollarda qog'oz varag'i chegarasidan uzoqda joylashgan. Bu sharoitlarda kesishadigan parallel chiziqlarni aks ettirish ma'noga ega emas.

Tabiyki, keskin perspektiv qisqartirishlar arxitekturani tasvirlash paytida o'rini bo'lsa ham, boshning qalam tasvirida ularni qabul qilib bo'lmaydi. Birinchidan, agar niqob gorizont chizig'ining pastida yoki yuqorisida joylashgan bo'lsa, chiziqning qiyalik burchagini aniqlash va ikkinchidan, teskari perspektiv taassurotga yo'l qo'ymaslik, ya'ni chiziqlar chuqurlikda uzoqlashgan paytida, ularning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik zarur. Ammo modelning o'ziga xos xususiyati shundaki, tayanch nuqtalarini bog'lovchi parallel chiziqlar qiyaligi noto'g'ri aks ettirilsa, niqobning tashqi ko'rinishi sezilarli darajada buziladi.

Chizishni ayrim tekisliklardan emas, balki yuzning umumiy tuxumsimon cho'ziqrok qismidan boshlash kerak. Avval yuz chiziqlari oddiy yumaloq shaklda chiziladi. Ushbu bosqichda abstrakt konstruksiyani emas, balki odam yuzini tasvirlash zarur. Faqat shundan keyingina tekisliklarni chizishga kirishish mumkin. Chiziqlarni, bosmasdan, keyinchalik qayta ishlov berish kerakligini nazarda tutgan holda chizish kerak.

Perspektiv karkas tayyor bo'lgan paytda, uning asosida yuz qismlari chiziladi: peshona, qosh usti yoylari bilan va qanshar usti (perenosisa), pastki va ustki qovoqlari bilan birga ko'z (ko'z qorachig'ini tasvirlamagan ma'qul, chunki belgilangan shartlilik me'yordi); qanshar, o'rkachlar, burun uchi, burun uchi, burun to'siqchasi va burun qanotlaridan iborat bo'lgan burun; yuqori va pastki lablar, burun va lab orasidagi burishgan joy, lunjlari, yuz suyaklari (yonoqlari), yonoqlarning egilgan joylari, chaynash mushaklari doirasi, jag'lari va suyagi, qulqolari, boshning chakka va tepa qismlari chiziladi. Ushbu barcha shakllar ko'rinar - ko'rinas tuxumsimon cho'ziq ko'rinishda jongina qilib ko'rsatiladi.

Shuni inobatga olish kerakki, yassi (oval) shakllar ayrim



tekisliklar ichida emas, balki, asosan karkas tugunlari atrofida joylashadi. Ular har bir aniq shaklning xarakterini belgilovchi bir nechta tekislikni o'z ichiga oladi. Shakllar to'g'ri joylashtirilgandan keyin tekisliklar chegaralarini yumshatish, tekisliklar orasida ohista, ravon o'tish joylarini yaratish lozim. Haqiqatdan yoritilgan shakllarda bu o'tish joylari yorug' va soya elementlari orasida kuzatiladi. Biroq, bu holda yorug' va soyaviy modellashtirish talab qilinmaydi. Shakllar ichida tekisliklarning ko'rinar - ko'rinas chegaralari saqlanadi. Agar zarur bo'lsa, tekisliklar chegaralarining tagi aniq yumaloq shaklli chiziqlar bilan chiziladi.

Shunday qilib boshning tashqi konturlari, qovoqlar, burun teshiklari, og'iz kesimi, quloqlar sharpalarining chegaralari aniq chiziladi.

III-Bob bo'yicha mashq, topshiriqlar, nazorat va mustahkamlash savollari:

1. David bosh qismi detallari rasmini chizish (burun, ko'z, og'iz, qulqoq).
2. Kesik bosh tasviri.
3. Gipsdan yasalgan bosh qismi nisbatlari haqida tushuncha.
4. David bosh qismi detallarini xotira va tasavvurdan chizish.
5. Gipsli boshni tasvirlash bosqichlari.
6. Shaklning chiziqli - konstruktiv rasmi tushunchasi.
7. Boshning anatomik modelirovkasi tushunchasi.
8. Shaklni idrok etish va tasvirlash tushunchasi.
9. Tasvirda tus munosabatining saqlanish darajasi.
10. Rasmda faktura masshtabi tushunchasi.
11. Kompanovka, konstruksiya, tus tushunchalari.
12. Rasmda kenglikni sezish va tasvirlash tushunchasi.
13. Rasmda kompozitsion markaz tushunchasi.
14. Yaxlit tasvirlash tushunchasi.
15. Gipsdan yasalgan boshni turli egilish va burilishlarda tasvirlash.



IV - BOB. TIRIK ODAM BOSH QISMI VA QOMATINI TASVIRLASH

TIRIK ODAM PORTRETI TASVIRLASH

Portret san'atda eng murakkab va ayni paytda eng mazmundor ob'ektdir. Odam tasvirining ajoyib namunalari grafikada, jumladan, qalamtasvirda ham mavjud. Ijodiy uslublar va san'at yo'nalishlarining turlichaligiga qaramay, mashhur rassomlar o'z ishlarida tasvirlanayotgan odamni chuqur o'rganib, tahlil qilganlar. Bunda grafik yechimlar – g'oyaviy maqsad va rassom oldida turuvchi ijodiy vazifalar bilan aniqlangan. (39, 40 - rasmlar).



39 - rasm. V. Savinskiy. Erkak portreti. 18.01.1980 yil.



40 - rasm. V. Savinskiy.Chol portreti. 12.03.1980 yil.



Bosh qismini chizish, uzoq muddatli o'quv rasmlarini mustaqil bajarishda bosh vazifa bo'lib hisoblanadi (41, 42 - rasmlar). Mustaqil ishning maqsadi bosh shakli xarakterini aniqlash hamda u yoki bu burilishda ifodalashdan iborat. Ayniqsa, bunday topshiriqlar boshning o'quv rasmini bajarish avvalida muhim ahamiyatga ega. Boshning qisqa muddatli rasmlari yirik o'lchamda, biroq naturadan ancha kichik bo'lishi mumkin. Ularda ma'lum burilishda bo'lgan jonli shakl tuzilishi xarakterini ifodalash zarur (43, 44, 45 - rasmlar). Tasvirlovchi talaba ko'rinxaydigan qismlar joylashuvi haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishi, asosiy yorug'lik - soya nisbatlarini aniqlashi, ko'z bilan og'irlik markazini topish va asosiy tayanch nuqtalarining o'zaro bog'liqligini aniqlashi kerak.



41 - rasm. Odam bosh qismini chizish ketma - ketligi
(1- 2 - bosqichlar).



42 - rasm. Odam bosh qismini chizish ketma – ketligi
(3 – 4 - bosqichlar)




Jonli shaklni chizishda vertikal va gorizontal nuqtalarni mexanik tarzda kesib o'tkazishdan saqlanish kerak. Vazifani yechishda tayanch nuqtalari o'rtasidagi ichki anatomik bog'lanishni topish zarur.


Eng avvalo, katta munosabatlar yordamida boshning xarakterli shakli aniqlanadi. Bunday chizishlar bilan bir qatorda davomli rasm nihoyasida talabalarga xotira asosida qoralamalar bajarish tavsiya qilinadi. So'ngra turli burilish va egilishlarda bo'lgan bosh rasmini bajarish kerak. Navbatdagi topshiriq turli qiyofalar tuzilishi va ularning ko'rish nuqtalariga qarab o'zgarishlarini kuzatishdan iboratdir. Talabalar boshni yon tomonidan chizishda o'ng yoki chapga egilgan bo'lishi mumkinligini unutib qo'yadilar. Pastga egilgan yoki yuqoriga ko'tarilgan boshni chizishda yuz qismi vertikal o'lchamda qisqaradi. Gorizontal chiziqlar esa dumaloq shaklga aylanadi. O'quv mashqlari sifatida bajarilgan ba'zi rakurslardagi bosh rasmlari ancha sxematik bo'lishi mumkin. Bu holatda asosan naturadagi perspektiv qisqarish muammosi hal etilishi lozim. Bunday chizgilar davomiyligi 10 daqiqadan ortiq bo'lmasligi kerak. Ular ma'lum muhitda bo'lgan turli xarakterli odamlar rasmlarini ancha dadil bajarishga imkon yaratadi. Naturaning xarakterli xususiyatlarini aniqlash butun o'rganish davri davomida turli xil rasmlar bajarishda asosiy zamin bo'lishi kerak. Bu ko'nikma talaba fazoda turli holatda bo'lgan jonli shaklni erkin ifodalash tajribasini o'zlashtirganda beqiyos ahamiyatga ega bo'ladi. Naturaning individual xususiyatlarini aniqlash odamni tasvirlashda ancha yuqori ijodiy sur'atdir. Bu individual xususiyatlar u yoki bu sharoitlarda turlicha namoyon bo'lishi bilan xarakterlanadi. Portret chizuvchi mashhur ustalar o'z ishlarida tasvirlanayotgan odamni chuqur o'rganishdan kelib chiqishar ekan, bu ularga grafikaning nisbatan oz imtiyozlaridan foydalananib, haqqoniy va ifodali model xususiyatlarini ifodalashga imkon bergen.



Talabalar ko'pincha boshning alohida qismlari va butun figurani tasvirlashda o'xshashliklarga berilib ketib, yaxlit katta shakl, hamma qismlar o'zaro bog'liqligini nazardan qochiradilar.



43 - a, б, в. rasmlar. Odam bosh qismini turli holatlarda chizish namunalari.




44 - а, б, в. rasmlar. Odam bosh qismini turli holatlarda chizish namunalari.



Portret sohasining katta ustalari odamlarni oddiy sharoitlarda, sodda va tabiiy holatlarini topib tasvirlashga harakat qilishgan.

Natura xarakterini ko'rsatuvchi tasvirlar va portret chizgilar ko'pincha grafika yoki rangtasvirda portret bajarish uchun tayyorgarlik bosqichini o'taydi. Bunday hollarda talabalarga ushbu natura uchun xarakterli holatni, ba'zan esa figuraning tashqi muhit bilan aloqasini topish uchun bir necha chizgilar bajarish tavsiya etiladi.



45 - a, b, c. rasmlar. Odam bosh qismini turli holatlarda chizish namunalarini.

Rasm ustida ishlashda hayotiylik, soddalik va ixchamlikka e'tibor bergan rassom uchun bolalar qiyofasini chizish ancha qiyin. Chunki bolani tinch o'tirishga majbur qilish qiyin. Bolalar qomatini o'ziga xos proporsional munosabatlarda tasvirlash qiyin kechadi. Ishning murakkabligi bolalar qomatiga nisbatan kattalarda ko'proq ko'zga tashlanadi.

Bola qomati proporsiyalarida yoshlik bilan bog'liq bo'lган quyidagi o'zgarishlar kuzatilishini eslatib o'tamiz: chaqaloq boshi uzunligi butun qomat uzunning $\frac{1}{4}$ qismini tashkil etadi. Ikki



yashar bolada 1/5, olti yoshda – 1/6, o'n besh yoshda – 1/7. Yoshga muvofiq alohida qismlar o'rtasidagi nisbat sezilarli o'zgaradi. Odatda, 2-5 yosh o'rtasida gavda o'sishi sekinlashadi, 5-7 yoshda esa bola sezilarli cho'ziladi, ozadi. Gavdaning pastki qismi yuqorisiga nisbatan katta o'sish dinamikasiga ega. Bolalar boshi proporsiyalarida miya bo'limi kattalarga ko'ra yuziga nisbatan kattaroq qismni egallashini sezish mumkin. Biroq talaba o'zining ijodiy ishlarida yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga ko'r-ko'rona yondashmasligi kerak. Aks holda, rasm jonsiz va jozibasiz holatga keladi.

Har bir bola va o'smirda xuddi katta odamlardagi kabi umumiy proporsiyalardan tashqari, individual cheklanishlar, qomat xarakteridagi ma'lum xususiyatlar va burilishlar bo'lishi mumkin. Bular ba'zan talabalar tomonidan kattalar nisbatlarini o'rnatishda hisobga olinmaydi. Bolalarning umumiy mashg'ulot bilan birlashgan guruhlarini chizish katta qiziqish uyg'otadi. Masalan, kitob tomosha qilayotgan, oromgohda o'ynayotgan, rasm chizayotgan bolalar tasviri ustida ishlash ular ruhiyatini ancha chuqur tushunishga olib keladi va ishda qimmatli material bo'lib xizmat qiladi.

Bosh qismini chizganda asosiy e'tiborni o'tkaziladigan o'q chiziqlariga qaratish kerak. Naturani to'liq o'rgangandan so'ng xarakterli holat tanlanib, uzoq muddatda bajariladigan ishga kirishiladi. Ish bajarish bosqichlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Naturani kuzatish, chizish uchun xarakterli, qulay vaziyatni tanlash.
2. Naturani qog'oz yuzasiga kompozitsion jihatdan to'g'ri joylashtirish.
3. Bosh shaklining umumiyligi xarakterini, detallar o'rnini, burilganlik va egilganlik holatlarini topish.
4. Bosh qismidagi hajmni konstruktiv jihatdan to'g'ri anglash.



-
5. Shaklni plastik modelirovka qilish.
 6. Umumiylid dan xususiylikka o'tish, detallarni ishlash.
 7. Shaklda tus darajasini va materiallikni berish.
 8. Xususiylikdan umumiylikka o'tish, ishda yaxlitlikni ta'minlash va umumlashtirish. (46 - rasm).

Rasm chizishni boshlash uni qog'oz yuzasida to'g'ri joylashtirmoq, aniq kompozitsion yechimni topish bilan boshlanadi. Ish uzoq muddatga mo'ljallab bajarilishi ko'zda tutilganligi sababli aynan shu natura ustida turli ko'rish nuqtalaridan bir necha bor qisqa muddatli tasvirlar bajarish juda ham foydalidir.

Odatda, portret bosh qismi o'lchamini o'z o'lchamidan bir oz kichik qilib olish qabul qilingan. Ayni vaqtda tasvirlovchi kishi bilan tasvirlanayotgan natura orasidagi masofa hisobga olinishi kerak.

Tasvirlashga kirishganda biz chizayotgan modelimizning hajmli timsolini tasavvur qilishimiz zarur. Ikkinci darajali bo'laklarga e'tiborni chalg'itmasdan, uch o'lchamli bosh qismining to'liq umumiyl ko'rinishini, ya'ni burilganligi yoki egilganligini, ufq chizig'iga nisbatan holatini, ko'zning nisbatan yuqorida joylashganligini, o'ng tomonga burilganligini nazarda tutish lozim. Masalan, bosh qismining ufq chizig'iga nisbatan cho'zinchoq holatini kuzatamiz.

Umumiy shakl topilgandan so'ng qalamning yengil harakatlari bilan modelning xarakterli tomonlarini topish boshlanadi. Bunda umumiy shaklning konstruktiv yechimiga alohida diqqat qaratish zarur. Boshning konstruktiv yechimida asosiy yoki profil o'tkazilgan chiziq o'ziga xos simmetriya o'qi bo'lib xizmat qiladi. Bu chiziq yuz qismini chizishda naturadagi bosh suyagining miya qismi va yuz qismini tasavvur qilish, uni qog'ozga tushirishda yengillik yaratadi.

Peshona qismiga e'tiborni qarating. U oldinga bo'rtib



chiqqanmi, tekis yoki ichkariga qarab ketganmi? Burun uzunligini – uning uch qismidan qoshlar orasigacha bo'lgan masofani aniqlang. Burun ostki asosidan ostigacha bo'lgan joydan og'iz qismining o'rnini belgilang. Bunda burun ostki qismidan to labgacha bo'lgan masofa labdan ostigacha bo'lgan masofadan kamligiga e'tiborni qarating. Agar naturani profil yoki 3/4 qismini chizayotgan bo'lsangiz, u paytda bosh qismini yaxlit faraz eting. Ko'rinxmayotgan yoki yarim ko'rinxayotgan ko'zni ham yoddan chiqarmang.

Profil vaziyatda chizilganda amaliyotda qo'yidagi kamchiliklar ko'zga tashlanadi: ko'z ko'p hollarda oldindan chizilgancha o'xshab ketadi, ko'z kosasi chegarasidan qulqqacha bo'lgan masofa kattalashib yoxud kichik bo'lib qoladi. Shu bilan bir qatorda qulqoq ko'z va burunga nisbatan o'z o'rnida joylashmay qoladi.



46 - rasm. Yosh odam bosh qismini chizish namunasi.

Modelning konstruktiv chiziqli yechimi shu asosda topila boriladi. Bunda oldingi bosqichda chizilgan boshning kesik shakli tuzilishini eslash maqsadga muvofiqdir.



Boshning konstruktiv yechimi topilgandan so'ng, uning tus yechimini topishga diqqat qaratiladi. Bunda naturaga tushayotgan yorug'lik ta'sirini unutmaslik kerak. (47 - rasm).

Ma'lumki, tushayotgan yorug'lik naturani ikkiga ajratadi: naturaning yoritilgan tomoni hamda nur kam tushayotgan yoki tushmayotgan tomoni. Shu sababli natura umumiylis tus munosabatlarning aniq yechimini topishga intilish zarur. Agar tus munosabatlari yechimi naturada o'z ifodasini topmasa, to'g'ri topilgan chiziqli tasvir bo'shliqda shaklni aniq idrok etishni qiyinlashtiradi. Masalan, peshona qismi yorug' tusda ishlanib, burunning ustki qismi to'q tusda tasvirlansa, burun oldinga bo'rtib chiqqan emas, balki ichkariga kirgandek taassurot uyg'otadi.



47 - rasm. Keksa ayol portretini chizish namunasi.

Ishning navbatdagi bosqichi bajarilgan tasvirni umumlashtirish deb yuritiladi. Bunda oldingi bosqichlarda bajarilgan chiziqli - konstruktiv qurish, shakldagi tus yechimi aniq bir maqsad - modelning badiiy obrazini yaratishga



bo'ysundirilishi lozim. Bunda chizilgan tasvir yaxlit, butunligicha idrok etilishiga erishish lozim.

Yakuniy bosqichda chizilgan tasvir asl model bilan taqqoslanadi. Bunda planlar nuqtai nazaridan bo'lgan ko'rinish farqlarini eslash lozim. Ya'ni birinchi, yaqin plandagi narsalarning chiziqlari, soyasi, tus munosabatlari ikkinchi, uchinchi plandagi narsa va detallar chiziqlari, soyalari, tus munosabatlari bilan solishtiriladi. Kerakli joylari bo'rtiriladi yoxud aksincha xiralashtiriladi. (48, 49, 50 - rasmlar).

Chizayotgan kishimiz aniq, jonli va o'ziga to'liq o'xshashlik xususiyatlarini topishi uchun detallar chegaralariga katta e'tibor berish zarur. Nafis chizilgan chegara chizig'i rassom uchun plastik va fazoviy vazifalar yechimini ta'minlaydi.



48 - rasm. O'smir bosh qismi qalamtasviri.



49 - rasm. Ayol kishi bosh qismi qalamtasviri.



50 - rasm. Ayol bosh qismi qalamtasviri.



BOSH QISMINING ANATOMIK MODELINI CHIZISH

Bo'lajak rassom - pedagog faoliyatida bosh rasmini chizish eng yuqori o'rnlardan birini egallaydi. Shu sababli kishining to'liq qomati va bosh qismini chizishni o'rganish uchun etarli vaqt ajratilgan. Kishining bosh rasmini yaxshi chiza bilish o'qituvchining pedagogik faoliyatida juda muhimdir. Bosh suyagini chizish – boshning anatomik modeli (ekorshe)ni o'rganish jarayonida, inson qiyofasini tasvirlashda boshlang'ich bosqich bo'lib xizmat qiladi. Bosh qismini chizishda plastik anatomiya haqida olingan bilimlar juda katta yordam beradi. Bu bilimlar talabalarning ishga ongli ravishda yondashishlari uchun xizmat qiladi. Shu sababli rassomlar anatomik bilimlarini amaliy ishlar bilan mustahkamlaydilar. Bu bosh suyagining gavdaning anatomik holatlarini naturadan, yoddan chizish bo'lib hisoblanadi (51, 52- a,b, 53 - rasmlar).




51 - rasm. Boshning anatomik modeli qalamtasviri.



52 - a rasm. Gavdaning anatomik modeli qalamtasviri.



52 - b rasm. Gavdaning anatomik modeli qalamtasviri.



53 - rasm. Gavdaning anatomik modeli qalamtasviri.

ODAM BOSH SUYAGINI CHIZISH

Bosh suyagi miya qutisi va yuz suyaklaridan tashkil topgan bo'lib, o'zida yigirma uchta suyakni birlashtiradi (54-63 - rasmlar).


Miya qutisi suyaklariga peshona, tepa, chakka, ensa, asosiy va chilvirsimon suyaklar; yuz suyaklariga yuqori jag', yonoq, burun, ko'z, pastki burun chanog'i kiradi. Bu suyaklar bir - biri bilan suyak choklari orqali birlashadi.



54 - rasm. Odam bosh suyaklari tasviri.



55 - rasm. Odam bosh suyagini old tomondan chizish.




56 - rasm. Odam bosh suyagining chiziqli tasvirlari.



57 - rasm. Odam bosh suyagining yon tomondan tasviri.



58 - rasm. Bosh suyagining turli tomondan ko'rinishlari tasviri.



59 - rasm. Bosh qismi nisbatlari.

Bosh suyagini chizish boshning umumiy modelini to'liqroq tasavvur qilishga imkon yaratadi. Shu sababli chizishdan oldin uni turli tomondan diqqat bilan ko'rish zarur. Shundan so'ng, bosh suyagini oldindan, yon tomondan va to'rtdan uch ko'rinishda chizish tavsiya etiladi. Biz quyida bosh suyagini chizish bosqichlarini ko'rib chiqamiz.



60 - rasm. Odam bosh suyaklari tasviri.



61 - rasm. Odam bosh suyaklarini ketma – ket tasvirlash bosqichlari.



62 - rasm. Xoxrin I.T. Odam bosh suyaklari tasviri.



63 - rasm. Odam bosh suyaklari, ekorshe, gipsli bosh haykal tasvirlari.

Ishning birinchi bosqichida har doimgidek qog'oz yuzasiga chizilayotgan narsamiz tasvirini kompozitsion jihatdan to'g'ri joylashtirish kerak. Joylashtirish uchun yengil chiziqlar bilan umumiy shaklni belgilab olamiz. Chizgan vaqtida shaklning gorizontal bo'yicha o'rtasi qog'ozning o'rtasidan sal yuqoridan o'tsinki, bunda bosh suyagi rasmi o'ngga yoki chapga surilib qolmasin. Aks holda, tayanch markazi buziladi.

Bosh suyagini chizishni o'rganuvchilar uchun uni o'z o'lchamida yoki ozgina kichikroq chizish tavsiya etiladi. Agar natura o'z o'lchamidan katta olinsa, nisbat munosabatlari buzilishi mumkin.

Ishning ikkinchi bosqichida bosh shaklining chiziqli konstruktiv tuzilishi bajariladi. Biz birinchi bosqichda katta shaklni chizib olgan edik. Bosh qismining o'rtasidan shartli o'q chizig'ini o'tkazish yuz qismidagi simmetrik detallarni teng ikkiga bo'ladi. Yana shuni ta'kidlash lozimki, o'tkazgan chizig'imiz bosh suyagining fazoda burilganligini aniqlash imkonini beradi.

Burunning peshona qismi bilan tutashgan joyidan o'tkazilgan gorizontal chiziq esa bosh suyagini teng ikki qismga bo'ladi: uning yuqori qismi miya qutisi va pastki qismi yuzdir.

Bosh suyagini chizishda o'tkazilgan vertikal va gorizontal chiziqlar kesishgan joy krestovina (krest yoki qo'shuv (+) alomatini ifodalaydi) hajmni tasvirlashda, boshning fazoviy vaziyatini aniqlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Shundan so'ng boshni uch qismga bo'lamiz: birinchisi - jag'dan noksimon burun teshigining pastki qismigacha; ikkinchisi - burun ostidan ko'z kosasining yuqorisigacha va ko'z kosasi yuqorisidan miya qutisi do'mbog'igacha bo'lган joydir.

Umumiylidkan xususiylikka o'tish tamoyiliga asoslangan holda, yuz qismining aniq nisbatlarini topish jarayonida har bir detalning aniq o'rmini belgilaymiz. Bunda birinchi bo'lak, ya'ni pastki qism yuqori va pastki jag'ni ajratamiz.

Ishni bajara borib, biz doim oldimizda tekis emas, balki hajmli narsa turganligini esdan chiqarmasligimiz kerak. O'tkazilgan yordamchi chiziqlar faqatgina chizishni osonlashtirish uchungina kerakligini unutmaslik lozim. Shu tariqa ishni murakkablashtira borib, asosiy katta tuslarni berishni boshlaymiz.

Ishni yakunlash bosqichida bosh qutisining hajmini aniqlash uchun tus munosabatlari birligiga erishishda shtrix va tuslarni doimo solishtirish zarur. Shu bois odam rasmini chizish badiiy ta'lilda eng muhim o'rinni egallaydi.

ODAM SKELETI RASMINI CHIZISH

Kiyingan yoki yalang'och kishi gavdasini chizganda plastik anatomiya haqidagi bilimlar katta yordam beradi. Eng avvalo, gavdaning asosiy suyaklarini bilish zarur.


Odam skeleti gavdada tayanch va himoya vazifasini o'taydi. Skelet borligi tufayli inson qomatini tik tutib turadi, ichki organlarni, nerv sistemasini va qon tomirlarini tashqi muhit ta'siridan asraydi.

Odam skeleti 206 suyakdan iborat bo'lib, uning 85 tasi juft va 36 tasi toq suyaklardir (64, 65 - rasmlar).


Suyaklar to'rt shaklda: naysimon, g'ovak, yassi va g'alvirsimon bo'ladi.

Naysimon suyaklarga elka, bilak, son va boldir suyaklari kiradi.

G'ovak suyaklarga – qovurg'a, to'sh, o'mrov, umurtqa, qo'l va oyoqning kaft hamda kaft osti suyaklari kiradi. Yassi suyaklar – bosh suyagining tepa, ensa, yuz; kurak va chanoq suyaklaridan iborat.



64 – rasm. Odam skeletinig old tomonidan ko'rinishi.



65 - rasm. Odam skeletining orqa tomonidan ko'rinishi.



G'alvirsimon suyaklarga – yuqori jag', peshona, bosh suyagining pastki asos qismidagi ponasimon va g'alvirsimon suyaklar kirdi.

Men quyida odam tanasini suyaklar joylashishiga ko'ra qismlarga bo'lib, ko'rib chiqamiz.

Tana skeleti: umurtqa pog'onasi va ko'krak qafasidan iborat.

Umurtqa pog'onasi 33-34 umurtqa pog'onasi birikishidan hosil bo'ladi. U 5 qismdan iborat bo'lib, 7 bo'yin, 12 ko'krak, 5 dumg'aza, 4-5 ta dum umurtqalaridan iborat.

Ko'krak qafasida 12 ta ko'krak umurtqasi, 12 juft qovurg'alar va to'sh suyagi mavjud.

Qo'l suyaklari: elka kamari suyaklari va qo'lning erkin suyaklariga bo'linadi.

Oyoq suyaklari: oyoq kamari va oyoqning erkin suyaklariga bo'linadi.

Talabalar skeletni o'ziga qarab turli tomondan chizishadi (66, 67 - rasmlar). Shu bilan bir qatorda xotira asosida ham sxematik rasmlar chizilsa, katta yordam beradi. Inson gavdasi skeletini chizish gavdaning konstruktiv yechimini topish jarayonini osonlashtiradi.

Gavda skeleti oldingi tomonida quyidagi suyaklar mavjud:

- | | |
|--------------------------|-------------------------------------|
| 1) peshona suyagi; | 13) 1 qovurg'a; |
| 2) tepa suyagi; | 14) 7 qovurg'a (chin qovurg'alar); |
| 3) ensa suyagi; | 15) 12 qovurg'a (etim qovurg'alar); |
| 4) chakka suyagi; | 16) 8 - 10 soxta qovurg'alar; |
| 5) jag' suyaklari; | 17) 5 bel umurtqasi; |
| 6) yuqori jag' suyagi; | 18) dumg'aza umurtqasi; |
| 7) oldingi burun suyagi; | 19) dum umurtqasi; |
| 8) pastki jag' suyagi; | 20) chanoq suyagi; |
| 9) bo'yin umurtqasi; | 21) yelka suyagi; |
| 10) o'mrov suyagi; | |
| 11) kurak suyagi; | |
| 12) to'sh suyagi; | |


- 22) tirsak suyagi;
23) bilak suyagi;
24) bilak uzuq (kaft usti)
suyagi;
25) kaft suyaklari;
26) barmoq suyaklari;
27) son suyagi;
28) tizza qopqogi suyagi;
29) katta boldir suyagi;
30) kichik boldir suyagi;
31) tovon suyagi;
32) oyoq kafti suyaklari;
33) panja suyaqlari.
- Gavda skeleti orqa
tomonida quyidagi suyaklar
mavjud:
- 1) tepa suyagi;
 - 2) ensa suyagi;
 - 3) peshona suyagi;
 - 4) yuqori jag' suyagi;
 - 5) pastki jag' suyagi;
 - 6) 1 bo'yin umurtqasi;
- 7) 7 buyin umurtqasi;
8) 12 ko'krak umurtqasi;
9) 5) bel umurtqasi;
10) dumg'aza suyagi;
11) dum suyagi;
12) chanoq suyagi;
13) 1 qovurg'a;
14) 12 qovurg'alar (etim);
15) o'mrov suyagi;
16) kurak suyagi;
17) elka suyagi;
18) bilak suyagi;
19) tirsak suyagi;
20) bilak uzuk (kaft usti)
suyagi;
21) kaft suyaklari;
22) panja suyaklari;
23) son suyagi;
24) katta boldir suyagi;
25) kichik boldir suyagi;
26) panja suyaklari.



66 - rasm. Odam skeletinig oldin va orqa tomonidan ko'rinishi.



OYOQ TAVONI VA QO'L PANJALARI RASMINI CHIZISH



67 - rasm. Odam skeletinig elementlarini old va yon tomonidan ko'rinishi.



Inson qomati plastikasini mukammal o'rganishda inson qo'l va oyoqlarini chizishni o'rganish juda muhimdir. Ko'p yillik ish tajribasi shuni ko'rsatdiki, talabalar inson qo'l va oyoqlarini chizishda ancha qiynaladilar. Shu sababli badiiy ta'lif amaliyotida gipsdan yasalgan qo'l va oyoq rasmlarini chizish qo'llaniladi (68 – 72 - rasmlar).

Turli davr rassomlari qo'l panjalari tasviriga katta e'tibor qaratganlar. Bu bilan insonning fizik va emotsional holatini ochish nazarda tutilgan.



68 - rasm. Gipsdan yasalgan qo'l panjasini qalamtasviri.



69 - rasm. Qo'l panjalari qalamtasviri.



70 - rasm. Oyoq tovoni qalamtasviri.



71 - rasm. A.Dyurer. Qo'llar qalamtasviri.



Qo'l panjalari rasmini chizganda ularning har bir kishi uchun alohida – o'ziga xos ko'rinishga ega ekanligini hisobga olish zarur. Portret tasvirida qo'l panjalariga qarab biz insonning ijtimoiy holati, yoshi va emotsiyal xususiyatlarini anglab olamiz.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, qo'l panjalari o'ziga xos va mukammal plastik xususiyaga egadir (72 - rasm).



72 - rasm. Qo'l panjalari qalamtasviri.

Qo'l va oyoq rasmini chizganda doimo umumiylidkan xususiylik. Naturaga qarab tasvirlash tamoyiliga rioya qilish zarur. Gisp qo'l va oyoq modellari ustidagi mashqlardan so'ng tirik qo'l va oyoq panjalarini turli holatda chizishni o'rganish kerak.



INSON QOMATINI CHIZISH

Inson qomatini o'rganish bo'yicha bajariladigan kompozitsiyalar ustida ishlash katta ahamiyatga egadir. "Dastlab naturadan hamma narsani qabul qilishga o'rganish, so'ng uni yetarlicha anglab, o'ziga bo'ysundirishga harakat qilish kerak", – degan edi P.P. Chistyakov. Tinch holatdagi – tik turgan va o'tirgan qomat rasmini chizish tajribasiga ega bo'lgach, turli burilishlarda bo'lgan figuralarni mashq qilishga o'tish mumkin. Murakkab blashtirilgan burilishda turgan qomatni o'rganish xomaki rasmlar chizishda katta yordam beradi. Bunda tors o'rta asosiy chizig'i yo'nalishiga ko'ra olish muhim ahamiyatga ega. Orqadan rasm chizishda umurtqa egilishini kuzatish katta qiziqish uyg'otadi. Murakkab rakursda bo'lgan qomat chizmalari kelajakda jonli shakl rasmini chizishdagi bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Bu jarayonda chuqurlab ketuvchi ayrim yuzalarning kuchli qisqargan holda, frontal joylashgan yuzalarning esa o'z haqiqiy kattaligida ko'rinishini e'tiborga olish zarur. Jonli shaklni tasvirlash jarayonida perspektiv qisqarishlarni ifodalash uchun geometrik jismlarni chizish qoidalarini hisobga olish kerak. Kuchli harakatda bo'lgan erkak qomatining turli holatlardagi chizmalarini, masalan, og'irlik ko'tarish paytida va h.k. chizish tavsiya qilinadi. Bunday holda torsning tayanch yassiligiga nisbatini, ushbu harakatni tavsiylovchi asosiy mushaklar tarangligini ko'rsata olish juda muhimdir. (73 - rasm).



73 - rasm. Odam tanasini bosqichma – bosqich tasvirlash.



Ikki erkak figurasidan iborat lavhalar chizishni mashq qilish zarur. Bunda asosiy e'tiborni ularning plastik bog'lanishiga qaratish kerak.

Bolalar tasviri ustida ishslash juda qiziqarli ijod turidir. Bunday rasmlarda bolalar ruhiyatining murakkab va ko'p qirrali ekanligini ifodalashga erishish zarur.

Holatning plastik xarakterini aniqlash uchun xayolan yelka, bel chizig'i yo'nalishli tos bel suyagiga nisbatan og'irlilik markazi holatiga bog'liqligini aniqlash kerak. Ikki oyoqqa tayangan holatida suyaklar vertikal, chetdan o'tuvchi tos chizig'i esa gorizontal holatda bo'ladi. Bir oyoqqa tushuvchi og'irlilik markazida esa tos yukdan bo'shalgan oyoq tomonga egilishini esda tutish kerak. Odam qomatini chizishda dastlab o'rta chiziq yo'nalishi aniqlanadi. Orqa tomondan rasm chizishda umurtqa chizig'ining harakatchanligi tufayli tos va elka suyagi turli holatlarda bo'lishi mumkin. Albatta, bu tartibdagi ish qomat tuzilishini aniqlashda yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Yalang'och yoki kiyimli qomat rasmlarida jonli xarakter shakli yorqin va dadil berilishi kerak. U yoki bu shaklni tus munosabatlari yordamida ifodalashda alohida emas, katta umumiy shaklni ko'rishga odatlanish lozim. (74 - rasm).

O'quv mashg'ulotlarida bajariladigan davomli rasmlarda odam qomati plastik holatlarining turli - tumanligini o'rganishga imkon yo'q. Shuning uchun bu bo'shlqnini xomaki rasmlar ustida mustaqil ishslash yo'li bilan to'ldirish mumkin. Odam gavdasi plastikasini ifodalashda olingan bilim va ko'nikmalar syujetli bo'lmagan o'lchamlarda qilinadi. Bu ish masshtabli nisbatlar bilan ishslash malakasini o'stiradi, ko'z bilan qomat proporsiyalarini aniqlashda qo'l keladi.

XOMAKI CHIZMALAR VA QORALAMALARINI TASVIRLASH

Odamlar bir - biridan ma'lum tarzda farqlanishini bilamiz. Shu bois qomatning individual xususiyatlarini aniqlash zarurati



tug'iladi. () Qisqa muddatli rasmda mayda ikir - chikirlardan uzoqlashib, u yoki bu holatda turgan odam tasviridagi eng ahamiyatlari va xarakterli jihatlarni aks ettirish muhimdir. Uzoq muddatli rasmning tugallanganlik darajasi, qo'yilgan maqsadga erishish – uni bajarish uchun ajratilgan vaqtga bog'liq. Kiyimdagidan burmalardan shaklni tavsiflovchi eng asosiyalarini va harakatni qayd etuvchilarini tasvirlash kerak. Qomatning xomaki rasmi ustida ishlashda ko'rish yaxlitligini doimo rivojlantirish zarur. Odamning turli harakat va turli mashg'ulotlarni bajarishdagi holatlarini tasvirlash davomida mashqlarning hamma imkoniyatlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Masalan, ishlab chiqarish jarayoni paytida bajarilgan rasmlar kasb xususiyatiga mos keluvchi qomat holatining u yoki bu xarakterli tomonlarini, shuningdek, odamning mehnatga munosabatini ifodalashi kerak. Bunday vazifalar yechimida figuraning aks ettirilishi grafik vositalar kamli misolida ko'zga tashlanadi.

Odam qomatiga oid rasmlarni auditoriyalarda davomli rasm bilan parallel bajarishga to'g'ri keladi. Biroq ularni mustaqil bajarish ham zarur. Sport maydonchasi yoki qirg'oqda turgan qomatlarni chizish yaxshi samara beradi. Vaqtning chegaralanganligi esa jonli shakl plastikasida e'tiborni eng xarakterli jihatlarga qaratishni taqozo qiladi.

Xotiradan xomaki rasm chizish bayon etilgan uslubga ko'ra olib borilishi kerak. Qomatning xomaki rasmi ustida ishlashni uy sharoitida ham, auditoriyada o'quv rasmini bajarish jarayonida ham davom ettirish lozim. Xomaki rasm bajarish davomli topshiriqni boshlashdan oldin katta shakl tuzilishini aniqlash maqsadida yoki uning oxirida o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun o'tkaziladi. Davomli rasm uchun tanlangan joydan shakl qismlarini yaxshiroq tasavvur etish uchun xomaki rasmlarni turli ko'rish nuqtalaridan chizish foydalidir. Dastlabki mashqlarni tik turgan, kiyingan, ma'lum sokin holatda turgan, oyoqlar tayanch tekisligiga nisbatan aniq ifodalangan holatdagi qomatlar misolida bajarish tavsiya qilinadi.



74 - rasm. Keksa kishini natyurmort bilan tasvirlash.

Har bir xomaki rasm davomiyligi 15 - 20 daqiqani tashkil etadi. Ularni naturaga nisbatan turli nuqtalardan bajarish lozim. Qomatni chizishda, birinchi navbatda, oyoqlar tayanch tekisligining gavdaga bo'lgan munosabatini aniqlash zarur. Buning uchun xayolan oyoqning yukni ko'taruvchi ichki tovonidan yuqoriga vertikal chiziq o'tkazilib, qomatning boshqa qismlari holati aniqlanadi.

O'tirgan qomatni chizishda torsning tayanch tekisligiga nisbatan yo'naliшини aniqlash juda muhim (90- rasm). Naturani yarim burilgan holda tasvirlashda oyoq va bel qismining qisqarishini hisobga olish zarur (75, 76, 77 - rasmlar).



75 - rasm. O'tirgan kishining konstruktiv – chiziqli rasmi.



76 - rasm. Kiyingan kishi gavdasi tasviri.



77 - rasm. O'tirgan kishining qisqa muddatli qalamtasviri.



VI-Bob bo'yicha mashq, topshiriqlar, nazorat va mustahkamlash savollari:

1. Bosh qismi nisbatlari haqida tushuncha.
2. Bosh qismi nisbatlari ustida ishlagan qadimgi davr rassomlari, rassom – pedagoglar haqida ma'lumot.
3. Bosh qismini tasvirlash ketma - ketligi.
4. Umumiylididan xususiylikka va xususiylididan umumiylikka qaytish tushunchasi.
5. Shakllarni plastik modelirovka qilish.
6. Shaklning konstruktiv asoslari.
7. Bosh qismi va gavdaning anatomik modelini chizish ahamiyati.
8. Odam bosh qismi suyaklari.
9. Skelet suyaklari.
10. Odam bosh suyagini va skeletini xotira va tasavvur asosida chizish.
11. Qo'l panjalarini, oyoq tovoni va panjalarini xotira va tasavvurdan chizish.
12. Portret chizish xususiyatlari.
13. Portret chizishda ketma - ketlik.
14. Gavdani chizish ketma - ketligi.
15. Bosh qismini chizishda tus munosabatlari.
16. Rasm chizishda ishlataladigan materiallar.
17. Ko'zni tasvirlash bosqichlari.
18. Burunni tasvirlash bosqichlari.
19. Odam bosh qismini va yuz bo'laklarini xotira va tasavvur asosida chizish.
20. Boshni turli egilish va burilishlarda tasvirlash.
21. Turli yoshdagi bolalar, o'smirlar va katta kishilar gavdasi nisbatlari.



TAYANCH SO'Z VA ATAMALAR LUG'ATI:

Avtportret – potret tasviri, unda rassom o'zini tasvirlaydi

Assimetriya – simmetriyasizlik (nomutanosiblik)

Antik – qadimiy

Apollon – qadimgi grek mifologiyasida – Quyosh xudosi, san'at homiysi

Akademik uslub – Uyg'onish davri va qadimgi davr san'ati shakllariga asoslangan uslub

Garmoniya – bog'liqlik, uyg'unlik, mutanosiblik

Detal – naturaning ma'lum bir qismi

Drapirovka – fon uchun ishlataladigan har xil rangli matolar

Zarisovka – tugallanmagan rasm, chizgi

Kartina – tasviriyl san'at asari

Komponovka – chizilishi kerak bo'lgan naturani qog'ozga to'g'ri joylashtirish

Kompozitsiya – tuzish, bir - biriga ma'lum tartibda joylashtirish, solishtirish va birlashtirish

Kontrast – qarama - qarshilik, zidlik

Maska – niqob, san'atda David, Apollon yuz qismining gips nusxalari tushuniladi

Molbert – rasm ishlash uchun moslama

Model – namuna

Pastel – rassomchilikda ishlataladigan rangdor yumshoq qalam. Tarkibi bo'yoq, bo'r va bog'lovchi moddadan iborat

Perspektiva – rasmida uzoqdan ko'ringan narsalarning tegishli kattalikda berilishi, qisqarish

Nabroska – xomaki ish, qoralama, xarakterli chiziq va shtrixlar yordamida tez bajarilgan chiziqli rasm

Natyurmort – tasviriyl san'at janri (fransuzcha – jonsiz tabiat majmui)

Rakurs – suratda chizilayotgan uzoqdagi figura va buyumlarni kichraytirib ifodalash

Siluet – kishi, hayvon, qush kabi narsalarning soyaga o'xshatib ishlangan rasmi



Sangina – rassomchilikda ishlataladigan yumshoq to'q qizil qalam

Tushuvchi soya – predmetdan tushayotgan soya

Plastik anatomiya – anatomiya bo'limi. Bunda inson tanasi nisbatlari, ichki tuzilishi va tana tashqi shaklining harakat vaqtida o'zgarishi o'rGANILADI. Asosiy e'tibor skelet tuzilishi, muskullar, suyak va muskullar birlashishiga qaratiladi.

ASOSIY VA QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR XAMDA AXBOROT MANBALARI ASOSIY ADABIYOTLAR

1. Mark and Mary Willenbrink — Drawing for the Absolute Beginner Canada 2006 y.

2. Xazel Xarrison - "Ensiklopediya - TEXNIKA RISUNKA" (Angliya) Moskva ACT Astrel 2005 y.

3. N. Isaxojayeva - Rangtasvir, Kompozitsiya (Natyurmort) Nizomiy nomidagi TDPU bosrmaxonasi 2014 y.

4. B. Boymetov Qalamtasvir "Ilm Ziyo" 2013 y.

5. B. Tojiev, N. Isaxojieva - Qalamtasvir, rangtasvir va kompozitsiya asoslari "Sharq" 2011 y.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalkimiz bilan birga kuramiz. Toshkent, "O'zbekiston", 2017 yil, 488 bet.

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston", 2016 yil, 56 bet.

3. Mirziyoyev Sh.M. Konun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi. Toshkent, "O'zbekiston", 2017 yil, 48 bet.

4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi



bo'lishi kerak. Toshkent, "O'zbekiston", 2017 yil, 104 bet.

5. 2017 - 2021 yillar O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha xarakatlar strategiyasi.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF - 4947 sonli


1. S. Abdurasilov, N. Tolipov. Rangtasvir T.: "Bilim" nashryoti, 2005 - 160 b.
2. B.B. Boymetov, M.S. Tolipov. Plastik anatomiya. - T.; Ilm Ziyo, 2005. - 198 b.
3. B. Boymetov. Chizmatasvir - T.:Ilm Ziyo, 2005. - 190 b.
4. S. Bulatov. Rangshunoslik. -T.:O'zbekiston, 2009. – 160 b.
5. R. A. Xudayberganov. Kompozitsiya. — T.: Sharq nashriyoti, 2007 y.
6. Metodo Professionale. *Figurino di Moda* Milano, 2005. - 362 p.
7. Hasanov R. Tasviriy san'at darslari samaradorligini oshirish yo'llari.Toshkent: «O'qituvchi», 1984.
8. N. Ten. Gips modellari rasmini chizish. T.: «O'qituvchi», 1984.
9. S.F. Abdullayev. **A.T. Mahmudov**. Qalamtasvir. Gips modellarni chizish. T.: «Fan va texnologiya» 2011.

INTERNET SAYTLARI

- 1 <http://www.ziyonet.uz>
 - 2 <http://title.uz/>
 - 3 [www.mrdi.uz,](http://www.mrdi.uz)
 - 4 www.sarafan.ru
 - 5 www.ocinka.ru
 - 6 www.textile-press.ru
 - 7 www.vgik.info
 - 8 www.pencil.nm.ru
 - 9 [www.msus.org.](http://www.msus.org)
 - 10 www.artacademu.spd.ru
-



TALABALARGA MUALLIF TOMONIDAN TAVSIYA
ETILGAN, MUSTAQIL BAJARISHGA MO'LJALLANGAN
RASMLAR:



1 – rasm. Daraxt qalamtasviri.



2 – rasm. Daraxt qalamtasviri.



3 – rasm. Daraxt qalamtasviri.



4 – rasm. Natyurmort namunasi.



5 – rasm. Natyurmort namunasi.



6 – rasm. Natyurmort namunasi.



7 – rasm. Natyurmort namunasi.



8 – rasm. Manzara namunasi.



9 – rasm.Qalamchizgi namunasi.



10 – rasm. Grafik tasvirlash namunasi.



11 – rasm. Sherni tasvirlash namunasi.



12 – rasm. Ionik kapitel tasvirlash namunasi.



13 – rasm. Ionik kapitel tasvirlash namunasi.



14 – rasm. Antik davrga mansub gipsli bosh namunasini tasvirlash bosqichlari.



15 - rasm. Qo'l va oyog suyaklari qalamtasviri.




16 - rasm. Qo'l va qo'l suyaklari qalamtasviri.



17 - rasm. Qo'llar qalamtasviri.



18 - rasm. Qo'llar qalamtasviri.



19 - rasm. Oyoq tovoni va panja suyaklari tuzilishi.



20 - rasm. Oyoq tovoni va panjalari qalamtasviri.



MUNDARIJA

KIRISH.....3

I – bob. Qalamtasvir fanini o'qitishning nazariy va amaliy asoslari, tasvirlashning asosiy qonun - qoidalari

Tasvirlashning asoslari qalam tasvir va uning maqsad – vazifalari.....	7
Rasm chizishda chamalash uslubi.....	9
Buyumlarning shakli va tuzilishi, rasm chizishda ketma – ketlik bosqichlarini tasvirlash.....	13
I-Bob bo'yicha mashq, topshiriqlar, nazorat va mustahkamlash savollari.....	19

II - bob. Har xil shakl va hajmga ega bo'lgan jismlarni tasvirlash

Natyurmort tushunchasi.....	20
Geometrik jismlar rasmini chizish.....	24
Gipsdan yasalgan rozetka rasmini chizish ketma - ketligi.....	27
Naqshli rozetkani tasvirlashda ketma - ketlik usuli.....	30
Gipsdan yasalgan vaza tasviri.....	32
Me'morlik bo'lagi – ionik kapitel rasmini chizish.....	34
II - bob bo'yicha mashq, topshiriqlar, nazorat va mustahkamlash savollar.....	36
III - bob. Antik davr haykaltaroshligi namunalaridan tasvirlash	
David bosh qismi detallari rasmini chizish.....	37
Kesik bosh tasviri.....	41
Gipsdan yasalgan bosh rasmini chizish.....	43
Gipsdan yasalgan niqob rasmini chizish.....	44
III - bob. bo'yicha mashq, topshiriqlar, nazorat va mustahkamlash savollari.....	46

III - bob. Tirik odam bosh qismi va qomatini tasvirlash

Tirik odam portretini tasvirlash.....	47
Bosh qismining anatomik modelini chizish.....	59



Odam bosh suyagini chizish.....	62
Odam skeleti rasmini chizish.....	70
Oyoq tovoni va qo'l panjalari rasmini chizish.....	76
Inson qomatini chizich.....	81
Xomaki chizmalar va qoralamalarni tasvirlash.....	82
III- bob. bo'yicha mashq, topshiriqlar, nazorat va mustahkamlash savollari.....	87
Tayanch so'z va atamalar lug'ati.....	88
Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar xamda axborot manbalari.....	89
Talabalarga muallif tomonidan tavsiya etilgan, mustaqil bajarishga mo'ljallangan rasmlar.....	91



CONTENTS

INTRODUCTION.....	3
-------------------	---

CHAPTER-I. Theoretical and practical bases of teaching the science of pencil drawing, Basic Laws of drawing

The basis of the image is the pencil image and its purpose – functions.....	7
Chamfering style in drawing.....	9
The shape and structure of the items, describe the stages of the sequence in drawing.....	13
Chapter I exercises, assignments, control and reinforcement questions.....	19

Chapter II. Describe bodies with different shapes and sizes

The concept of Natyurmort.....	20
Drawing a picture of geometrical bodies.....	24
The sequence of drawing a picture of a rosette made of plaster.....	27
Sequence method in describing the pattern socket.....	30
Image of a vase made of plaster.....	32
Architectural section-drawing a picture of Ionic kapitel.....	34
Chapter II exercises, assignments, control and reinforcement questions.....	36
Chapter III. Description of samples of ancient period sculpture	
David draw a picture of the details of the headpiece.....	37
Truncated description.....	41
Drawing a headdress made of plaster.....	43
Draw a picture of a mask made of plaster.....	44
Chapter III. practice on, assignments, control and reinforcement questions.....	46

Chapter III. Describe the head part and stature of a living person

Portray a portrait of a living person.....	47
--	----



Draw an anatomical model of the head part.....	59
Drawing the skull of a man.....	62
Drawing a picture of a man's skeleton.....	70
Draw a picture of the heel of the foot and the paws.....	77
Draw a human figure.....	82
Outline drawings and sketches of khomaki.....	83
Chapter III. exercises, assignments, control and reinforcement questions.....	88
Dictionary of base words and terms.....	89
Main and additional sources of information.....	90
Pictures for students to perform independently, recommended by the author.....	92

TOSHEV ILYOS IDIBEKOVICH

“CHIZMA TASVIR” FANIDAN MASHQ VA TOPSHIRIQLAR TO’PLAMI

Muharrir:

G’.Murodov

Texnik muharir:

G.Samiyeva

Musahhih:

M.Raximov

Sahifalochi:

M.Arslonov



Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original –
maketdan bosishga ruxsat etildi: 05.07.2021. Bichimi 60x84.

Kegli 16 shponli. « Palatino Linotype» garn. Ofset bosma
usulida. Ofset bosma qog’ozni. Bosma tabog’i 7. Adadi 100.


Buyurtma № 93.



«Sharq-Buxoro» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahar O’zbekiston Mustaqilligi ko’chasi, 70/2 uy.
Tel: 0(365) 222-46-46



ISBN-978-9943-7369-4-8



9 789943 736948